

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIM FAKULTETI

BOSHLANG'ICH TA'LIM KAFEDRASI

Islomova Gulnora Jamolovna

**4-sinf "O'qish kitobi"da "Ajdodlarimiz-faxrimiz" bo'limi asosida
o'quvchilarni ajdodlarimiz an'analariga sadoqatlilik ruhida tarbiyalash**

5111700– Boshlang'ich ta'lism va sport tarbiyaviy ish ta'lism yo'nalishi bakalavri
darajasini olish uchun yozilgan

bitiruv malakaviy ishi
(2017-2018- o'quv yili)

Ilmiy rahbar: S.S.Avezov ,
f.f.n., dots

Rasmiy opponent: B.S.Jamilova,
f.f.n., dots

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIM FAKULTETI
 BOSHLANG'ICH TA'LIM KAFEDRASI

**4-sinf "O'qish kitobi"da "Ajdodlarimiz-faxrimiz" bo'limi asosida
 o'quvchilarni ajdodlarimiz an'analariga sadoqatlilik ruhida
 tarbiyalash"
 mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajardi: 5111700— Boshlang'ich ta'lism va sport, tarbiyaviy ish ta'lism yo'nalishi
 bitiruvchisi 4-4BTU-14 guruh talabasi

Islomova Gulnora Jamolovna

Ilmiy rahbar: S.S.Avezov ,
 f.f.n., dots

Rasmiy opponent: B.S.Jamilova,
 f.f.n., dots

Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o'tdi.
 10-sonli bayonnomasi 07.05.2018- yil

"Tasdiqlayman"
kafedra mudiri
prof. M.H.Mahmudov
12.09.2017- yil.

Bitiruv malakaviy ishi bo'yicha topshiriq

1. Kafedra: Boshlang'ich va mакtabgacha ta'lism
2. Ish mavzusi: 4-sinf "o'qish kitobi"da "Ajdodlarimiz-faxrimiz" bo'limi asosida o'quvchilarni ajdodlarimiz an'analariga sadoqatlilik ruhida tarbiyalash
3. Bajaruvchi: Islomova Gulnora Jamolovna
4. Ilmiy rahbar: S.S.Avezov, f.f.n.dotsent

Ish mavzusi universitetning _____ yil _____ sonli buyrug'iga asosan tasdiqlangan.

5. Yakunlangan ishning topshirish muddati: 28. 05. 2018- yil
6. Bitiruv malakaviy ishni bajarish uchun talabaga berilgan topshiriqning qisqacha mazmuni va bajarish muddati:
 - Mavzuga daxldor adabiyotlarni to'plash hamda o'qib chiqish (oktabr oyi).
 - BMIning kirish qismini yozish (noyabr oyi).
 - BMIning 1-bobini yozib, qo'lyozma nusxasini ilmiy rahbarga topshirish (dekabr oyi).
 - BMIning 2-bobini yozib, qo'lyozma nusxasini ilmiy rahbarga topshirish (yanvar oyi).
 - BMIning xulosa qismini yozish (fevral oyi).
 - Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatini tuzish (mart oyi).
 - BMIning tahrir qilingan nusxasini kompyuterda terish hamda daftarda ko'chirish (aprel oyi).
 - BMIni Boshlang'ich va mакtabgacha ta'lism uslubiyoti (may oyi).

7. Chizmalar miqdori: _____

8. Topshiriq berilgan vaqt: 2017- yil sentabr

9. Bitiruv malakaviy ish himoya qilingan kun: _____

10. Davlat attestatsiyasi tomonidan qo'yilgan baho: _____

Talaba imzosi: _____

Boshlang'ich va mакtabgacha ta'lism uslubiyoti kafedrasining 2-son yig'ilish bayonnomasidan Ko'chirma

2017- yil 12-sentabr

Qatnashdilar: p.f.d.prof. M.Mahmudov, (rais), dotsentlar: Y.Azimov, dots.A.Hamroyev, F.Qosimov, G`Sayfullayev, M.Fayzullayev, S.Avezov, B.Jamilova, L.Sharipova, G.Hasanova, F.Safarov, N.Safarova; katta o'qituvchilar: M.Qosimova, S.Xo`jayeva, M.Negmatova, G.Yo`ldosheva; o'qituvchilar: Sh.Istamova, G.Umarova, I.Davronov, B.Yo`ldoshev, D.Davronova, M.Ro`ziyeva, N.Adizova, M.Hakimova, D.Mirzayeva, L.Ochilova, R. Xalilova, S.Maxmudova.

KUN TARTIBI:

1. Bitiruv malakaviy ish mavzulari va ilmiy rahbarlarni tasdiqlash .

KAFEDRA QAROR QILADI:

1.Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim fakulteti 4-kurs bitiruvchisi Islomova Gulnora Jamolovnaning bitiruv malakaviy ish yozishga ruxsat etilsin.

2. Islomova Gulnora Jamolovnaning ”4-sinf ”O‘qish kitobi“da “Ajdodlarimiz-faxrimiz” bo‘limi asosida o‘quvchilarni ajdodlarimiz an’analariga sadoqatlilik ruhida tarbiyalash“ mavzusi bitiruv ishi tarzida tasdiqlansin.

3. Gulnora Islomova bitiruv malakaviy ishiga f.f.n., dotsent S.S.Avezov ilmiy rahbar etib tayinlansin.

Kafedra mudiri :

M.Mahmudov

Kotiba:

H.Ch.Nusratova

MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA’LIM FAKULTETI

5111700 -Boshlang‘ich ta’lim va sport, tarbiyaviy ish ta’lim yo’nalishi bitiruvchisi Islomova Gulnora Jamolovnaning o’zlashtirishi haqida

M A ‘ L U M O T N O M A

Talaba Hamroyeva Gulshoda Maxmudovaning Buxoro davlat universitetida 2014-2018-yillarda o‘qishi davomida o‘quv rejasini to’liq bajardi va quyidagi baholarda o’zlashtirishga erishdi:

“a’lo” _____ ta

“yaxshi” _____ ta

“qoniqarli” _____ ta

Fakultet dekani:

B.J. Umarov

**Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim uslubiyoti kafedrasining
10-son yig‘ilish bayonnomasidan
Ko‘chirma**

2017- yil 16- may

Qatnashdilar: p.f.d.prof. M.Mahmudov,(rais), p.f.n.,dots.A.Hamroyev, prof dotsentlar: Y. Azimov, F.Qosimov, G`Sayfullayev, M.Fayzullayev, S.Avezov, B.Jamilova, L.Sharipova, G.Hasanova, F.Safarov, N.Safarova; katta o`qituvchilar: M.Qosimova, S.Xo`jayeva, M.Negmatova, G.Yo`ldosheva; o`qituvchilar: U.Amonov, Sh.Istamova, G.Umarova, I.Davronov, B.Yo`ldoshev, D.Davronova, M.Ro`ziyeva, N.Adizova, M.Hakimova, D.Mirzayeva, L.Ochilova, R. Xalilova, S.Maxmudova.

KUN TARTIBI:

1. Bitiruv malakaviy ishlar muhokamasi.

KAFEDRA QAROR QILADI:

1.Islomova Gulnora Jamolovnaning ”4-sinf ”O‘qish kitobi“da “Ajdodlarimiz-faxrimiz” bo‘limi asosida o‘quvchilarni ajdodlarimiz an’analariga sadoqatlilik ruhida tarbiyalash “ mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi DAK talablariga javob beradi, u sinov himoyasidan o‘tdi deb hisoblansin va rasmiy himoyaga ruxsat etilsin.

2. Talaba Islomova Gulnora Jamolovnaning ”4-sinf ”O‘qish kitobi“da “Ajdodlarimiz-faxrimiz” bo‘limi asosida o‘quvchilarni ajdodlarimiz an’analariga sadoqatlilik ruhida tarbiyalash “ mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga rasmiy opponent etib f.f.n. dotsent B.S.Jamilova tayinlansin.

**Kafedra mudiri:
Kotiba:**

**M.Mahmudov
H.Ch.Nusratova**

**Davlat Attestatsiya Komissiyasiga
Buxoro davlat universiteti
MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIM FAKULTETI**

Islomova Gulnora Jamolovnaning ”4-sinf ”O‘qish kitobi“da “Ajdodlarimiz-faxrimiz” bo‘limi asosida o‘quvchilarni ajdodlarimiz an’analariga sadoqatilik ruhida tarbiyalash“ mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi rasmiy himoyaga ruxsat etilsin.

Himoyaga bitiruvchining o‘zlashtirishi to‘g‘risida ma’lumotnama, bitiruv malakaviy ish haqida rahbar hamda kafedra yig‘ilishi xulosasi, taqriz va talabaga tavsifnama ilova qilinadi.

Fakultet dekani : J.BUmarov

Buxoro davlat universiteti 5111700 –Boshlang'ich ta'lif va sport, tarbiyaviy ish ta'lif yo'nalishi talabasi Islomova Gulnora Jamolovnaning "4-sinf "O'qish kitobi“da “Ajdodlarimiz-faxrimiz” bo'limi asosida o'quvchilarni ajdodlarimiz an'analariga sadoqatlilik ruhida tarbiyalash “mavzusidagi bitiruv malakaviy ishga DAKning

XULOSASI

Buxoro davlat universiteti DAK Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi BMIning bajarish haqidagi 22.05.2009- yil 160-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan nizomda asosan quyidagilarni aniqladi:

1. BMIning hajm va talab bo'yicha rasmiylashtirilganligi (me'yor: tabiiy yo'nalishlar-50dan, ijtimoiy yig'ilishlar-70 betdan kam bo'lmasligi kerak): talabga javob beradi-10 ball talabga qisman javob beradi-7 ball, talabdan chetga chiqish holatlari mavjud-4 ball.
2. Mavzuning davlat va universitet grant dasturlari asosida yoki dolzarb muammolar bo'yicha tanlanganligi: davlat dasturiga kirgan-8 ball, grant loyihasi bo'yicha-7 ball, Bux DU dasturi bo'yicha-6 ball, dolzarb muammolar bo'yicha-5 ball.
3. Mavzu dolzarbligining asoslanganligi: etarli darajada asoslangan-5 ball, etarli darajada asoslanmagan-3 ball, noaniq-2ball.
4. Maqsad va vazifalarning aniq ifodalanganligi: aniq-7 ball, to'liq aniq emas-5 ball, aniq emas-3 ball.
5. BMI bajarishda ilmiy tekshirish metodlaridan foydalanganlik darajasi: to'la-7 ball, qisman-5 ball, etarli emas-3 ball.
6. Olingan natijalarning yangiligi va ishonchlik darajasi: natija yangi -8 ball, ilgari olingan-6 ball, to'la ishonchli emas-3 ball.
7. BMIning xulosa qismda ishlab chiqarishga tavsiya bor-6 ball, ijtimoiy sohada qo'llashga (ta'lif, atrof-muhitni himoya qilish,ma'naviy-ma'rifiy...)tavsiya qilingan-5 ball, tavsiya yo'q-3ball.
8. Bitiruvchining mavzu bo'yicha olingan natijalarni tanqidiy baholanganligi darajasi: aniq-8 ball, to'la aniq emas-6 ball, tanqidiy baholanmagan-4 ball.
9. Ishning ilmiylik xarakteri: ilmiy tadqiqodlar asosida-8 ball, aralash shaklidan-5 ball, referativ xarakterdan-3 ball.
10. Adabiyotlardan foydalanganlik darajasi: ilmiy-amaliy jurnallar, monografiya, yetakchi olimlar asarlaridan to'la foydalilanigan-8 ball, ilmiy adabiyotlar kam foydalilanigan-6 ball, faqat darslik, ma'ruza matnlari, o'quv qo'llanma va ma'lumotnomalardangina foydalilanigan-4 ball.
11. Bitiruvchining ma'ruzasiga baho: a'lo-10 ball, yaxshi-7 ball, qoniqarli-6 ball.
12. Berilgan savollarga javoblari: to'liq-8 ball, o'rta-6 ball, qoniqarli 4 ball.
13. BMI ni tashqi taqrizchi tomonidan baholanishi: a'lo-7 ball, yaxshi-6 ball, qoniqarli-5 ball.
14. BMI ga qo'yilgan yakuniy ball _____

Bahosi _____

Eslatma: Har bir bal bo'yicha aniqlangan ballning tagiga chizib belgilanadi.

DAK raisi :

dots A.R.Sohibov

A'zolari:

prof.M.H.Mahmudov

Dots.F.M.Qosimov

O'qituvchi O.Adizova

DAK kotibi:

(PDJ),katta o'qituvchi N.Ch.Nusratova

Sana "___" _____ 2018- y

eja :

Kirish:

- bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi;
- bitiruv malakaviy ishi mavzusining o‘rganilish darajasi;
- tadqiqot maqsadi;
- tadqiqot obyekti;
- tadqiqot predmeti;
- tadqiqot vazifalari;
- tadqiqot metodi;
- tadqiqotning metodologik asoslari;
- bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi;
- bitiruv malakaviy ishining ilmiy- amaliy ahamiyati;
- bitiruv malakaviy ishining tuzilishi.

Ibob.Yosh avlodni barkamollik ruhida tarbiyalashning pedagogik va nazariy asoslari

I.1. Yoshlarni ajdodlarimizning ulug‘ siymolariga faxr tuyg‘usini tarbiyalash Yoshlarni ajdodlarimizning ulug‘ siymolariga faxr tuyg‘usini tarbiyalash

I.2. 4-sinf “O‘qish kitobi”da o‘quvchi shaxsini shakllantirishning ma’naviy va axloqiy talablari.

II bob. 4-sinf “O‘qish kitobi” darsligidagi “Ajdodlarimiz –faxrimiz “bo‘limi asosida o‘quvchilarda yuksak insoniy fazilatlarni shakllantirishning metodik usullari

II.1. Bo‘limdagи ulug‘ ajdodlarimiz siymosi keltirilgan matnlar asosida o‘quvchilarni insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash .

II.2. Darslikdagi To‘maris, Najmiddin Kubro, Alisher Navoiy, Z.M.Bobur, Abu Rayhon Beruniy Usmon Nosir siymolarini o‘rganish orqali o‘quvchilarda yuksak insoniy fazilatlarni shakllantirish .

III.Xulosa

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati

KIRISH

Bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzarbliji. Har qanday jamiyatda ham inson kamoloti uning yuksak axloqiy fazilati va odobi bilan o'lchangan. Bu esa inson xarakterida ma'naviy dunyoqarashi, ona yurt va vatanga muhabbat in'ikosi natijasi sifatida shakllangan.

Hozirgi davrda ham respublika ijtimoiy, iqtisodiy, asosiy va madaniy rivojlanishida xalqimizning ona-vatan taraqqiyoti, kamoloti uchun ko'rsatayotgan fidoyiligi tufayli jahon sivilizatsiyasiga qo'shayotgan hissasi sifatida qaralmog'i lozim. Ayniqsa, bu sohada yosh avlodning bilimi, intellektual salohiyati va tashabbuskorligi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunda har bir yoshning o'z orzulari, intilishi va tinimsiz kurashishlari, ma'naviy qarashlarining yuksak darajada o'sib borayotganligi ona-yurtga bo'lgan cheksiz e'tiqodi bilan chambarchas bog'liqdir. Mamlakatimizning iqtisoqiy, ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy taraqqiyotini yosh avlod hayotisiz, ularni har tamonlama barkamol shakllangan shaxs sifatida tarbiyalamasdan tasavvur etib bo'lmaydi. Albatta, ularni komil inson sifatida ulg'ayishini bugundanoq boshlashimiz lozim. Binobarin, Birinchi Yurtboshimiz ta'kidlaganidek: "Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro'-e'tibori, avvalombor, farzandlarimizning unib – o'sib, ulg'ayib, qanday inson bo'lib, hayotga kirib borishiga bog'liqdir. Biz bunday haqiqatni hech qachon unutmasligimiz kerak!"¹ Shunday ekan, yoshlarni o'zbek degan millatning buyuk xalq farzandi ekanligini erta yoshlikdan anglashimiz, uning ong va shuuriga singdirilmog'i lozim. Ana shundagina u, yoshlidan buyuk xalqimiz urf-odatlari marosimlari, an'ana va qadriyatlarimizga chuqur ehtirom va e'tiqod ruhida shakllanadi, ulug' ajdodlarimiz, ulug' bobolarimiz g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalanadi.

Ana shunday g'oya, qarash ruhida tarbiyalash esa pedagoglar oldida juda cheksiz mas'uliyat va pedagogik tajriba hamda izlanishni talab etadi.

Bu maqsadni amalga oshirish ajdodlarimiz ilmi, kurash va jasorati hayoti bilan

1. Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –Toshkent, Ma’naviyat, 2008, 36-bet.

yoshlarni tanishtirish, vatanni sevish, ona-yurtni ardoqlash unga munosib avlod, yetuk farzand bo’lib, yashash-uzluksiz ta’limning asosiy bo’g’ini bo’lgan boshlang’ich ta’limda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, 4-sinf “O’qish kitobi” darslarida bu sohada ancha mavzular matni kiriyilgan bo’lib, ulug’ zotlar To’maris, buyuk shoirlar Najmuddin Kubro, Alisher Navoiy, Z.M.Boobur, qomusiy olimlar Abu Rayxon Beruniy va zamondosh shoirlar Usmon Nosir haqidagi hayotiy voqealar, rivoyat va afsonalar matni keltirilgan. Bu sinfda o’rganiladigan matnlar quyi sinflarda murakkabroq bo’lib, eng avvalo, o’quvchining o’zi bu haqda atroflicha tasavvur va tafakkurga ega bo’lmog’i lozim. Zero, birgina ulug’ xalqimizning jasoratli ayol qahramoni To’maris haqida ma’lumotga ega bo’lish uchun buyuk tarixchi Gerodotning “Tarix” kitobi sahifalarini o’qib ko’rish lozim. To’g’ri, bujorasat haqida iste’dodli yozuvchimiz Mirkarim Osimning “To’maris” afsonasi yaratilgan. Olimlarning aniqlashicha, bu afsona emas, balki haqiqat bo’lib, 529-yilda Eron hukmdori Kirning qadimiy turonliklar yurtiga, massagetlar qabilasiga bostirib kirishi va himoyasida qabila boshlig’I To’maris (ayol) ning jasorati tasvir etilgan. 4-sinf “O’qish kitobi”da keltirilgan yozuvchi Hamdam Sodiqovning “To’maris” hikoyasi asosiy g’oya –To’marisning yovlarga qarshi jasorati tasvirlangan bo’lsa-da, unda, voqealar tavsioti-o’zbek xalqiga xos bo’lgan xususiyatlar-bor umriniyurti ozodligiga baxsh etuvchi ayol ekanligi va boshqa ijodiy fazilatlari ham bir hikoyada jamlay olgan.

Bunday voqealarni obrazli ifodalashni darslikda keltirilgan boshqa ajdodlarimiz haqidagi asarlarda ham uchratamiz.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev yosh avlod tarbiyasi tarbiyasi xususida gapirar ekan, o‘qituvchilar oldiga ana shunday mas’uliyatli vazifani yuklaydi: ”Aytish kerakki, o’qish va o‘qitish ishlarini jahon andozalaroga ko’tarish borasidagi sa’y-harakatlarning avvalida o‘qituvchi-murabbiyning kasbiga

mehri hamda sadoqati, bilim va tajribasi turadi. Zero, o‘quvchisini o‘z faniga qiziqtira olmagan, shogirdiga kerakli saboq bera olmagan muallimning mehnatidan naf kutish befoyda“².

2.Mirziyoyev Sh. M. O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘shlangan nutqidan. Xalq so‘zi, 2017, 1-oktabr. 1-sahifa

Hozirgi davrda ham respublika ijtimoiy, iqtisodiy, asosiy va madaniy rivojlanishida xalqimizning ona-vatan taraqqiyoti, kamoloti uchun ko’rsatayotgan fidoyiligi tufayli jahon sivilizatsiyasiga qo’shayotgan hissasi sifatida qaralmog’i lozim. Ayniqsa, bu sohada yosh avlodning bilimi, intellektual salohiyati va tashabbunkorligi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunda har bir yoshning o‘z orzulari, intilishi va tinimsiz kurashishlari, ma’naviy qarashlarining yuksak darajada o’sib borayotganligi bilan chambarchas bog’liqdir.

Mamlakatimizda ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, yosh avlodning chuqur bilim olib, har jihatdan komil inson bo‘lib yetishishlariga alohida ahamiyat berilmoqda. Yosh avlodni ana shunday ma’naviy olami keng, uning asosidagi beباho axloq ruhida tarbiyalash uzlusiz ta’limning muhim bosqichi bo’lgan boshlang’ich ta’lim mutaxassislari oldiga ham ulkan pedagogik mas’uliyatni yuklaydi. Xalqimizda “Bola boshidan”degan maqol bor. Shunday ekan, inson ruhiy olami birdan shakllanadigan, ulg’ayadigan tuyg’u emas. U erta yoshlikdan qaror topadigan, asta-sekinlik bilan atrofdagi kishilar, ta’lim va tarbiya bilan shakllanadigan, milliy urf-odat, an’ana va qadriyatlarni tarkib toptiradigan, o’tmis ajdodlarimizdan bizgacha yetib kelgan mehr-oqibat, samimiylilik, o’zaro hurmat, do’stlik, ota-onaga muhabbat, sabr-bardosh, rostgo’ylik, mehnatsevarlik, kamtarinlik, xushmuloyimlik kabi yuksak insoniy fazilatlarni egallab boradigan o‘z tabiat, odobiga aylantirib boradigan psixologik jarayondir. O‘quvchilarda ana shu yuksak odat, fazilatlarini tarbiyalashda “O‘qish kitobi” darslarining alohida o’rnii bor. Ayniqsa, 4-sing “O‘qish kitobi” darsligidagi “Ajdodlarimiz-faxrimiz” bo’limidagi she’r, ertak va rivoyatlardan iborat badiiy asarlarni bolalar qalbiga

jo etish-shu soha mutaxassislari uchun juda katta izlanish hamda pedagogik tajriba, metodik tayyorgarlikni talab etadi. Bo'limdagi asarlarni o'rganish uchun 42 soat ajratilgan. Bo'limda insoniy tuyg'ularning eng muhim sharti odob qoidalari-vatanni sevish, undagi har bir giyohni ardoqlash g'oyasi har bir badiiy asarda to'la o'z ifodasini topgan. Darslikdagi har bir asar-ertak, she'r, hikoya va rivoyatlar muhim fazilatlarni kamol toptirishga qaratilgan. Shunday ekan, Ma'naviyatning asosi-yurtni sevish, tuproqni ardoqlash va ona xalqimizga cheksiz mehr tuyg'usini tarbiyalash-Vatanga e'tiqod, ajdodlar ruhida tarbiyalashdek buyuk tuyg'uni uyg'otishdan iboratdir. Shunday yuksak tuyg'u erta yoshlikdan bola qalbiga singdirilmog'i lozim. "Birinchi sinf uchun dasturlar"ning o'qish darslarini o'qitish haqidagi dasturda ham: "Umumta'lim maktablari 4- sinf o'qish darslarida o'quvchilarning o'qish malakalarini takomillashtirish bilan birga ularning aqliy-axloqiy faoliyatlarini o'stirishga qaratilgan ishlar amalga oshiriladi" deb belgilangan.

Shunday qilib, darslikda keltirilgan, ajdodlarimiz farzandlarining ilmi, kurashi va qahramonligini yorqin bayon eta olishi o'quvchilarni ular g'oyalari asosida tarbiyalash, shu asosda vatanparvarlik, yuksak insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash-bitiruv malakaviy ishimizning dolzarbligini belgilaydi.

Bitiruv malakaviy ish mavzusining o'rganilganlik darjasи. Ulug' ajdodlarimiz tarixi va taraqqiyotin o'rganish o'quvchidan yuksak bilim va dunyoqarash rivojini talab etadi. Ayniqsa, yirik olim, shoir va qahramonlari jasoratini his qiish esa, shu soha pedagogdan aniq dalil va voqeylekka tayanishga majbur etdi. Shu nuqtai nazardan, 4-sinfda bir necha siymolar haqida ma'lumot berish talab etiladiki, u siymolar yashagan davr aql-zakovati va jasoratini his qilish, ularnin o'quvchilar ongiga singdirish pedagogdan yuksak sayn- harakat va bilim talab etadi.

Darslikda o'zbek xalqining milliy qahramoni bu To'maris jasorati ulug' olim Abu Rayhon Beruniy donishmandligi, Najmiddin Kubro vatanparvarligi, Alisher Navoiy zukkoligi, Boburning o'z yurtiga sadoqati va zamondosh shoirimiz Usmon Nosir haqidagi rivoyat keltirilganligini, bu mavzular matni

ustida ishslashdan oldin, ushbu ulug' siymolar haqida bizningcha quyidagi tasavvurlarga ega bo'lish lozim:

1. Ulug siymolar yashagan davr haqida.
- 2.Ulug' siymolarning tarixiy ishlari va xizmatlari xususida atroflicha va keng ma'lumotlarga ega bo'lish.
- 3.Har bir siymoni buyukligi bilan, beqiyos jasorati bilan o'quvchilar ongiga yetkaza olish hamda ular dunyoqarashini boyitish.

Darslikda keltirilgan manbalar yangi. Garchi ular Gerodotning "Tarix", A.Irisovning "Beruniy", Xondamirning "Bade'ul badoya" Naim Karimovning ijodidan saralangan bo'lsa-da, aniq ma'lumotlar darslikda umuman keltirilmagan, yuqoridagi manbalar asosida badiiy tarzda qayta ishlangan. Shunday ekan, darslikdagi ulug' siymolar haqidagi bilim va malakalarni kengaytirishni, ular haqidagi ma'lumot va dalillarni boyitish o'quvchilarning yosh xususiyatlariga moslashtirishni, shu asosda matnlar mazmunini yoritish darslarni milliy g'oya asosida tashkil etish bitiruv malakaviy ishimizning asosini tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ish mavzusining maqsadi. Darslikdagi buyuk siymolar haqidagi ma'lumot va bilimni atroflicha o'rganish matndagi donolar tabiatidagi asosiy insoniy fazilatlar xalqimizga xos bo'lgan donolik, jasorat, vatanparvarlik va kurashuvchanlik g'oyalarni o'quvchilar ongiga va shuuriga singirish ularni dars jarayonida qo'llashga erishishni shu asosda ularni milliy g'oya asosida tarbiyalashdan iborat. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini yuksak insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalashda4-sinf "O'qish kitobi" darsligidagi "Ajdodlarimiz-faxrimiz" bo'limidagi badiiy asarlarni o'rganish, ushbu asarni o'rganish jarayoni o'qish texnikasini egallahsga da'vat etish orqali ularni ona vatanga cheksiz e'tiqod va e'htirom, xalqimizning milliy urf-odat, an'ana va qadriyatlarimizni o'rgatish, shu asosda yuksak vatanparvarlik hamda axloqlilik ruhida tarbiyalashdan iborat. Shu ulug' maqsad yo'lida dars jarayonida hozirgi zamonaviy pedagogik texnologik usullar, interfaol metodlardan foydalanishning samara va natijalariga erishishdir.

Bitiruv malakaviy ish mavzusining ob'ekti. Gerodotning “Tarix” , A.Irisovning “Beruniy”, Xondamirning “Bade’ul badoya”, “Makorimul-axloq” asarlari, Naim Karimovning “Najmiddin Kubro” asari, SMatchon, A.Shojalilov, X.G’ulomova, Sh.Sariyeva, B.Dalilovlarning “O’qish kitobi” (4-sinf uchun darslik-T Yangi polidarng “servise”, 2007,218-231betlar) Buxoro shahar 19-maktab davlat amaliyotida pedagogik tajribalarimiz bitiruv malakaviy ishimizning tadqiqot ob'ekti bo'lib xizmat qildi.

Bitiruv malakaviy ish mavzusining predmeti. 4-sinf “O’qish kitobi” darsligining “ Ajdodlarimiz-faxrimiz” bo’limi (218-231-betlar).19-maktabda o’tkazilgan o’qish darslari tadqiqot predmeti sanaladi. O‘qish darslarida o‘quvchilarning nutq boyliklarini rivojlantirish, ularni matnni ifodali o’qishga o’rgatish, shu asosda ona-yurtga cheksiz muhabbat uyg‘otish, ulug‘ xalqimizdan qolgan milliy muomala va madaniyatimizni, ma’naviy tarbiyani qanchalik va qaydarajada egallab olayotganlarini kuzatish, ijtimoiy hayot jarayonidagi odob va axloqiy faoliyatları, aqliy qobiliyatlaridagi yutuq va kamchiliklarini baholab borish jarayoni tadqiqot predmeti hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ish mavzusining vazifalari. Darslikdagi “Ajdodlarimiz-faxrimiz” bo’limini o’quvchilarga o’rgatish uchun quyidagi pedagogik vazifalar amalga oshirildi:

- To’maris qahramonligi va jasorati haqida aniq ma'lumotlar va dalillar u haqda yaratilgan badiiy asarlar nazardan o’tkazilib, tahlilga tortidi;
- “To’maris” hikoyasining badiiy xususiyatlari, badiiy vositasini va g’oyasi syujeti hamda kompozitsiyasi o’rganiladi;
- Alisher Navoiy va Z.M.Bobur hqaqida keltirilgan matn mavzusi va undagi asosiy g’oya hamda mazmuni tahlil etiladi;
- zamondosh shoir Usmon Nosir haqidagi darslikdagi matn syujetining badiiy xususiyatlari yoritiladi;
- ulug’ siymolarning tarixiy xizmatlarini yoritishdagi fikr va xulosalar umumlashtiriladi.

- Amir Temur qahramonligi va jasorati haqida aniq ma'lumotlar va dalillar u haqda yaratilgan badiiy asarlar nazardan o'tkazilib, tahlilga tortiladi;
- “Amir Temur” hikoyasining badiiy xususiyatlari, badiiy vositasini va g‘oyasi syujeti hamda kompozitsiyasi o‘rganiladi;
- Alisher Navoiy va Z.M.Bobur hqaqida keltirilgan matn mavzusi va undagi asosiy g‘oya hamda mazmuni tahlil etiladi;
- zamondosh shoir Usmon Nosir haqidagi darslikdagi matn syujetining badiiy xususiyatlari yoritiladi;
- ulug‘siymolarning tarixiy xizmatlarini yoritishdagi fikr va xulosalar umumlashtiriladi.
- darsdagi badiiy asarni o‘quvchilarga o‘qish texnikasini o‘rgatish va unda o‘qish parametrlariga erishish;
- asarlardagi baddiy tasviriy vositalar, ko’chma ma’no so‘zlar va asl ma’noli so‘zlarning matnda qo‘llanish o’rinlarini tahlil qilish orqali xalqimiz donoligini anglashga o‘rgatish;
- shu asosda o‘quvchilarda yuksak insoniy fazilatlarni, vatan tuyg‘usini tarbiyalashdan iborat.

Bitiruv malakaviy ish mavzusining metodlari. Ish tahlil qilish va qiyosiy - tipologik metod asosida olib borildi. Ishning amaliy qismida esa mashg’ulotlarni tashkil etishning zamonaviy va innovatsion metodlaridan atroflicha foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ish mavzusining metodologik asoslari. O’zbekiston respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlaridagi milliy g‘oya xalqimizning urf odat, an’ana va qadriyatlar ular ajdodlarning jasorati qahramonlari vatanparvarligicha milliy tuyg’ularni tarbiyalashga oid ilmiy-nazariy qarashlar va ona tili metodikasi faniga oid tadqiqotlar ishining metodologik asosini tashkil etadi.

BMI mavzusini yoritishda Q.Qosimova, T.Ashrapova, M.Olimova, TG''affurova kabi o'zbek olimlari, buyuk ajdodlarimiz haqida yaratilgan ilmiy va badiiy asarlardagi xulosa va qarashlarga tayanildi.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi. 4-sinf "O'qish kitobi" darsligidagi ajdodlarimizning ulug' siymolar To'maris, buyuk allomalar Abu Rayxon Beruniy, ulug' shoir Najmuddin Kubro, mutafakkir va ulkan jamoat arboblar Alisher Navoiy, Z.M.Bobur, zamondosh shoirimiz Usmon Nosirlar hayoti va ijodi haqidagi matnlar tahlilga tortildi:

- ta'lim-tarbiya jarayoning davlat hujjatlari asosida talablari o'rganildi;
 - darslik bo'limidagi badiiy asarlar mazmun va g'oyasi yoritildi;
 - bo'lim turkumidagi hikoyalar matni tahlilga tortildi;
 - bo'limdagи materiallarning mazmuni va g'oyasi, badiiy tasviriy vositalari asosida o'qish texnikasi ko'rsatildi;
 - yuqoridagi darslarni o'rgaratishda zamonaviy texnologik pedagogik vazifalar samara va natijasi yoritildi;
 - o'quvchilarning o'qish darslari orqali odoblilik, yuksak insoniylik fazilatlar ruhida tarbiyalash to'g'risida fikr va xulosalar umumlashtirildi;
 - yuqoridagi darslarni o'rgaratishda zamonaviy texnologik pedagogik vazifalar samara va natijasi yoritildi;
 - o'quvchilarning o'qish darslari orqali odoblilik, yuksak insoniylik fazilatlar ruhida tarbiyalash to'g'risida fikr va xulosalar umumlashtirildi;
 - Ibn Sino obrazi orqali o'quvchilarda inson jasorati, do'st-birodarga e'htirom va u orqali mardlik tuyg'usini shakllantirildi;
 - shoir Safar Barnoyevning "Minora" she'rida ham vatan tuyg'usi anglatildi.
 - zamondosh Usmon Nosir kurashuvchanligi tahlil etildi;
 - ajdodlarimizning ulug' siymolari haqida fikr va qarashlarimiz umumlashtirildi.
- O'zbek xalqi juda qadim tarixiy davrni o'z boshidan kechirgan millatdir. Uning o'ziga xos sususiyatlari milliy urf-odatlati, marosim, an'ana va qadriyatlarga ega bundan tashqari millat faxriga aylangan ulug' siymolari borki, ular xalqimiz vatanimiz erki taraqqiyoti uchun o'z

jonlarini baxsh etgan, ona tuproq uchun shahid bo'lgan. "O'qish" darslarida ona shunday ulug' zotdir. To'maris, Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi kabi sohibqiron va vatanparvar sarkardalar, Najmisddin Kubro, A.Beruniy, A.Navoiy, Z.M.Bobur va zamondosh Usmon Nosir hayoti, ularning fidoiyliklari va jasoratlari haqidagi darslarni zamonaviy tarzda tashkil etish ishning muhim ilmiy yangiligini belgilaydi.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy-amaliy ahamiyati. O'zbek xalqi juda uzoqtarixiy taraqqiyotni bosib o'tgan millat. "O'qish kitobi" darsligidagi xalqimizning sevimli farzandlari To'maris, Najmisddin Kubro, A.Beruniy, A.Navoiy, Z.M.Bobur va zamondosh Usmon Nosir hayoti ularning fidoiyliklari va jasoratlari haqidagi darslarni zamonaviy tarzda tashkil etish ishning muhim nazariy ahamiyatini belgilaydi. 4-sinf "O'qish kitobi" darslaridagi materiallar hozirgi davr pedagogik talablar asosida tahlil va tadqiq etildi. O'qish darslarida o'quvchilarningbu sohadagi bilim va malakalarini shakllantirish, shu asosda ularni yuksak odoblilik, insoniylik ruhida tarbiyalash ishimizning muhim nazariy ahamiyatini belgilaydi, Ishning amaliy ahamiyati shundaki, undagi ilmiy xulosalar va nazariy fikrlardan

4-sinf "O'qish" darslarini mazmunan va daliliy boyitish, o'quvchilarni ma'rifiy va ma'naviy ongiga singdirishda ish soha mutaxassislari, shuningdek, universitetimiz boshlang'ich ta'lim usiliyotchi bitiruvchilarining davlat amaliyotida maliyotchilar

4-sinflarda o'qish darslarini o'qitishda foydalanishi mumkin, degan umiddamiz.

Ishning tuzilishi. BMI kirish, ikki bob, to'rt fasl, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I bob

Yosh avlodni barkamollik ruhida tarbiyalashning pedagogik nazariy asoslari

I.1. Yoshlarni ajdodlarimizning ulug‘ siymolariga faxr tuyg‘usini tarbiyalash

Yosh avlodni milliy vatanparvarlik, insonparvarlik ruhida tarbiyalashda o’qish darslarining o’rni nihoyatda katta. Darslikdagi matnlarning mazmuni, tarixiy voqealari va unda aks ettirilgan tarixiy shaxslarning jamiyatdagi o’rnini

aniq his qilish pedagogdan juda katta bilim va mahoratni talab etadi. Agar o'qituvchi tarixiy voqelikni va tarixiy shaxslarning jasorati va vatanparvarligini chuqur his qilmasa, dars mazmuni va sifati o'quvchilarga beta'sir o'tkaziladi. Ma'naviy- ma'rifiy g'oyasi ular ongiga to'liq yetib bormaydi. Yoshlarda yuksak insoniy fazilatlar shakllantirish murakkab kechadi. O'tgan davr mobaynida eski tuzumda og'ir meros bo'lib qolgan ana shunday illatlarga, el-yertimizga nisbatan kamsitish va milliy manfaatlarimizni mensimaslik holatlariga barham berish, ko'hna qadriyatlarimiz, din-u diyonatimizni tiklash, hayotimizda tarixiy adolatni qaror toptirish, yangi jamiyat qurish yo'lida xalqimizning ma'naviy yuksalishini o'z oldimizga qo'ygan oliyjanob maqsadlarga yetishda hal qiluvchi mezon deb qarash va shu asosda ish olib borish biz uchun doimo ustuvor vazifa bo'lib kelganligi va bugun ham e'tiborimiz markazida turganini ta'kidlash lozim.

Inson kamolotining asosida tarbiya yotadi. Uning bu hayotdan olgan bilimi, tajribasi va faoliyatining mezoni tarbiya tarozisida o'lchanadi. Ayniqsa, yosh avlod dono xalqimiz ta'biri bilan aytganda, go'yoki niholga qiyoslanadi. U qanchalik erta mehr bilan parvarish qilinsa, u shunchalik to'g'ri, sermeva va ko'rakm bo'lib rivojlanadi. Shuning uchun ham ulug' o'zbek pedagogi, buyuk ma'rifatparvari Abdulla Avloniy tabiya xususida bejiz aytmagan: "Tarbiya biz uchun yo hayot, yo najot, yo halokat, yo saodat masalasidur..." Xususan, hozirgi davrda yoshlarni milliy istiqlol g'oyalari ruhida tarbiyalash, ular ongiga milliy urf-odat, an'ana, rasm-rusm va qadriyatlarimizni singdirish pedagogik mas'uliyat hamda burch-vazifalarimizga aylanib qolgan.Ularni har tomonlama barkamollik ruhida tarbiyalash bu sohadagi faoliyatimizning negizini, maqsad mohiyatini tashkil etadi. Zero, milliy istiqlol tarbya mazmunida vatanparvarlik,o'zaro do'stlik, hamjihatlik, insonni sevish, mehr-oqibat, ota-onani qadrlash, birov larga yaxshilik ko'rsatishni o'zining hayotining mazmuni sifatida qarash, iymon, rostgo'ylik, shirinsuxanlik, xushmuomalalik, ezgulik kabi milliy odat va qadriyatlarimizni egallashga da'vat turadi.

Qadimgi O'rta Osiyo aholisi yaratgan og'zaki adabiyot yodgorliklari orasida qahramonlik katta va muhim o'rin tutadi. Qahramonlik ko'p asarlari aniq dallilarga ega. O'rta Osiyo aholisining chet el bosqinchilariga qarshi vatanparvarlik kurashi zaminida tug'ildi va M.Gor'kiy aytganidek, bunday fol'klor asarlari “..tarixga chekinmas va o'ziga xos yo'l dosh bo'lib keldi”. Xalq qahramonlik eposida otashin vatanparvar va fidokor bahodirlarning monumental obrazlari yaratildi.

“To'maris”obrazi O'rta Osiyo aholisining chet el bosqinchilari tajovuziga qarshi olib borgan mardona kurashining badiiy ifodasıdir. Eramizdan avvalgi VI asrda bir necha mamlakatlarni istilo qilgan ahmoniyalar shohi Kir O'rta Osiyoga bostirib kiradi.O'rta Osiyo aholisi, ayniqsa To'maris boshchiligidagi massaget qabilalari Kirga qarshi mardona kurash olib boradilar.Kir qo'shini yengiladi va uning o'zi 529 yilda jang maydonida o'ldiriladi.Shu voqealar To'maris tarixiy-qahramonlik eposining mazmunini tashkil etadi. Afsuski, bu eposning asli bizgacha yetib kelmagan; uning mazmuni grek tarixchisi Gerodotning (484-425) “Tarix”kitobida hikoya qilib qoldirilgan.

To'maris massaget qabilalarining boshlig'i-hukmron ayol bo'lib, el-yurtning tinchligi va osoyishtaligini ko'z qorachiday himoya qiladi.Biroq ahmoniyalar podshosi Kir massagettarning osoyishtaligiga xavf soladi. Boshda u To'marisga uylanish yo'li bilan massagettarni o'ziga qaram qilmoqchi bo'ladi. To'maris bu zolim podshoning shum niyatini bilib, uning taklifini rad etadi. Kir urush ochib, o'z maqsadiga erishmoqchi bo'ladi. To'maris urushining oldini olishga qanchalik intilmasin.Kir urush boshlashga qat'iy qaror qilgan edi.Shundan keyin To'maris mardona mudofaa jangiga otlanib, dushmanga: “biz bilamizki sen tinchlikni xohlamaysan, shu sababli basharti maslahatimizga ko'nmay, massagetlar bilan to'qnashishni istagan, ko'prik yasamay, deb ovora bo'lib o'tirma.Bizga aytsang,biz senga xalaqit bermay, daryodan uch kunlik yo'lga qo'chib ketamiz, bemalol daryodan o'tasan, undan so'ng yuzmayuz urushamiz. Bordi-yu, agar biz bilan daryoning sen turgan qirg'og'ida urushmoqchi bo'lsang, uni ayt, bunga ham biz rozi, faqat,

nomardlik qima",- deydi.To'maris mardona kurashga shaylanadi. Kir esa xiyla-nayrang yo'liga o'tadi. U To'marisning o'g'li Sparganiz bo'shliq bir guruh massagetlarni mast qilib asir oladi. To'maris g'azab bilan: "Ey qonxo'r Kir, qilgan ishning bilan maqtanmay qo'yaqol! Sen mening o'g'limni yuzmaya yuz jangda yengganing yo'q, uni makkorlik bilan sharob ichirib qo'lga tushirding. Endi mening nasihatimga kir, o'limni menga topshirib, kelgan yeringga ziyon-zahmatsiz qaytib ket. Agar so'zimga kirmasang, massagetlar tangrisi- Quyosh nomi bilan qasamed qilamanki, men senday ochko'z yuhoni qon bilan sug'oraman",- deydi. Kir bu so'zlarga amal qilmaydi, urush davom etadi. To'maris boshliq massagetlar qattiq jangga kirib Kir qo'shinini yengadilar, uning o'zini o'ldiradilar. To'maris Kirning boshini qon bilan to'lg'azilgan meshga solarekan, o'z kurashiga yakun yasab: "Ey nomard, sen meni- jangda seni halollik bilan yengib chiqqan bir ayolni-makkorlik bilan o'g'lidan judo qilib, farzand dog'ida kuydirding, sen umring bo'yi qonga to'ymading, men o'z ontimga amal qilib seni qon bilan sug'ordim. Birovning yurtiga zo'ravonlik bilan bostirib kirganlarning jazosi shu!"- deydi.

To'marisning keying so'zlari eposning g'oyasiga yakun yasaydi,bosqinchilarga qarshi xalqning qat'iy hukumini ifodalaydi. Bu eposda osoyishtalik urushni, adolat zulmni, mardlik va shijoat hiylakorlik va razillikni yengadi. Kishilarning eng yaxshi xislatlari va ezgu niyatları xalq qahramoni To'maris qiyofasida mujassamlashadi.Gerodot, Kteziy va boshqa tarixchilar O'rta Osiyo qabilalarida, jumladan massagetlarda ijtimoiy hayotning turli sohalarida xotin-qizlarning katta o'rin tutganini so'zlaydilar. Shuningdek, Xitoy sayyohi Chjan Syan (eramizdan avvalgi II asr) Davan (Farg'ona)dagi xotin-qizlarning mavqeい haqida so'zlab "erkaklar biror qaror qabul qilar ekanlar, ular o'z xotinlarining maslahatiga qulq solar edilar",-deydi.

Butun dunyoga ma'lum va mashhur bo'lgan buyuk alloma va aziz-avliyolarimiz orasida Abduxoliq G'ijduvoniy va Bahouddin Naqshbandning muborak siyoshi alohida ajralib turadi. Ota-bobolarimiz ulug' avliyo Bohouddin Naqshbandga chin dildan ixlos qo'yib, uni " Bohouddin

Balogardon” deb ta’riflab kelishida teran ma’no bor. Uning “Diling Ollohdha, qo’ling mehnatda bo’lsin” degan hayotbaxsh hikmati dinimizning olivjanob ma’no-mohiyatini yorqin ifodalab, xuddiki shu bugun aytilgandek jaranglaydi. Bu murakkab dunyoning azaliy va abadiy muammolari, shu bilan birga, har bir davrning dolzarb masalalariga har tomonlama asosli ilmiy javoblar topilgan taqdirdagina ma’naviyat olami yangi ma’no-mazmun bilan boyib boradi. Boshqacha aytganda, har bir ilmiy yangilik, yaratilgan kashfiyot-bu yangicha fikr va dunyoqarashga turtki beradi, ma’naviyatning shakllanishiga o’ziga xos ta’sir o’tkazadi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, zaminimizda yashab o’tgan buyuk allomalarimiz, mutafakkir bobolarimizning ibratli hayoti va faoliyati, bemisil ilmiy-ijodiy kashfiyotlari bugun ham jahon ahlini hayratga solayotganini g’urur bilan ta’kidlash kerak.

Masalan, Muhammad Muso Xorazmiyning o’nlik sanoq sistemasini, algoritm va algebra tushunchalarini dunyoga bиринчи bo’lib ilm-fan sohasiga joriy etgani va shu asosda aniq fanlar rivoji uchun o’z vaqtida mustahkam asos yaratgani umuminsoniy taraqqiyot rivojida qanday katta ahamiyatga ega bo’lganini barchamiz yaxshi bilamiz. Bugungi kunda odamzotning ilm-fan va zamonaviy texnologiyalarga keltirar ekanmiz, beixtiyor ana shu buyuk bobomiz misolida bunday yuksak marralarga erishishda o’zbek xalqining ham munosib hassasi borligidan qalbimiz iftixorga to’ladi. Yana bir ulug’ ajdodimi-Ahmad Farg’oniy inson tarixidagi ilk Uyg’onish davrining eng zabardast va kuchli namoyondasi, o’z zamonasining fundamental fan asoschilaridan biri sifatida bashorat dunyoqarashi va ma’naviyatning rivojiga beqiyos ta’sir ko’rsatdi. Uning bebaho merosi o’z davrining olimlari uchun dasturamal bo’lib xizmat qilgani tarixiy manbalar orqali yaxshi ma’lum.

Allomaning “Astronomiya asoslari haqida kitob” nomli asari o’n ikkinchi asrdayoq lotin va ivrit tillariga tarjima etilgani ham bu fikrning dalilidir.

Yevropada Al-Faraganus nomi bila mashhur bo’lgan bu allomaning ilm-fan rivojidagi nufuzi shu qadar yuksak ediki, uning ismi sharafi yer kurrasidagina

emas, balki samoda ham shuhrat topdi. O'n oltinchi asarda Oydag'i kraterlardan biriga uning nomi berilgani bu fikrni isbotlaydi. Atoqli astranom Yan Geveliy tomonidan 1647-yili nashr qilingan "Selenografiya" kitobida Oydag'i kraterlardan ikkitasi ikki buyuk vatandoshimiz-Ahmad Farg'oniy va Mirzo Ulug'bek nomi bilan ataladi.

Milliy tariximizning yana bir yorqin yulduzi Abu Rayxon Beruniy faoliyatiga haqqoniy baho berar ekan, amerikalik fan tarixchisi Sarton XIasrini "Beruniy asri" deb ta'riflaydi. Bunday yuksak va haqli baho avvalo qomusiy tafakkur sohibi bo'l mish buyuk vatandoshimiz ilm-fan taraqqiyotiga qo'shgan beqiyos hissasi bilan izohlanadi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, Beruniy ilmiy masalalarda ham tarixiy voqeа hodisalarga, o'z zamondoshlariga balo berishga ham ham o'ta xolislik va haqqoniylit bilan fikr yuritgan. Shu bois ham u hayotda ko'p aziyatlar chekkan, hatto umrining oxirida turmush qiyinchiliklariga duchor bo'l gan, ammo har qanday og'ir sharoitga qaramasdan, e'tiqotidan qaytmagani uning o'z ma'naviy ideaqlariga naqadar sodiq bo'l ganidan dalolat beradi.

Ana shunday noyob fazilatlar sohibi bo'l mish mashhur alloma Ibn Sinoning "Tib qonunlari" asari necha asrlar davomida Yevropaning eng nufuzli oliv yurtlarda asosiy tibbiyot darsliklardan biri sifatida o'qitib kelingani, dunyo miqiyosida "Meditina", "Sog'lom turmush tarsi" degan tushunchalarni fundamental asosi bo'lib xizmat qilgani, albatta, chuqur hayotiy va ilmiy zaminga ega. Aniqroq qilib aytganda, bu Benazir allomaning butun ilmiy faoliyati dunyo taraqqiyotini insonparvarlik ruhida, ya'ni ma'naviy negizda rivojlantirishga ulkan ta'sir o'tkazadi deb aytishga barcha asoslar bor.

O'rta asrlarda Xorazm diyoridan olis Arabistonga borib, arab tili grammatikasini mukammal tarzda ishlab chiqqan, ilm-fanning ko'plab boshqa sohalarda ham shuhrat qozongan Mahmud Zamaxshariy bobomizni esga olaylik. O'zining jismoniy nogironligiga qaramay, dunyoning ko'plab mamlakatlariga mashaqqatli safarlar qilgan, teran bilimi va ilmiy salohiyati

bilan butun islom olamini lol qoldirgan bu zot, hech shubhasiz, xalqimiz uchun ma’naviy yetuklik timsoli bo’lib qolaveradi.

Agarki mana shu muqaddas zaminimizda tavallud topib, voyaga yetgan, o’z hayoti va faoliyati bilan nafaqat tarixda, ayni vaqtida bashariyatning bugungi taraqqiyot sahifalarida ham o’chmas iz qoldirgan buyuk mutafakkir va allomalarimiz, aziz-avliyolarimizni ta’riflashda davom etadigan bo’lsak, o’ylaymanki, bu borada uzoq gapirish mumkin.

Bizning o’z oldimizga qo’yan maqsadimiz esa bunday ulug’ zotlarning hayot yo’li va qoldirgan merosini to’liq tasvirlash emas, balki ularning eng buyuk nomoyondalari timsolida ma’rifat, ilm-u fan, madaniyat, din kabi sohalarning barchasini o’zida uyg’unlashtirilgan xalqimizning ma’naviy olami naqadar boy va rang-barang ekanini isbotlab berishdan iboratdir. Bunday noyob va beba ho boylikni har tomonlama chuqur o’rganish, uning ma’nomazmunini farzandlarimizga yetkazish masalasi barchamiz, birinchi galda, ziyyolilarimiz, butun jamoatchiligidan uchun ham qarz, ham farz bo’lishi shart, deb hisoblayman. Nega deganda, o’zimiz-bugun shu yurtda yashayotgan vatanparvar insonlar bu vazifani o’z zimmasiga olmasak, chetdan kelib hech kim hech qachon bu ishni qilib bermaydi.

Shu o’rinda buyuk bobolarimizning ma’naviy olami xususida fikr yuritganda, Sohibqiron Amur Temur haqida alohda to’xtalishimiz tabiiydir. Chunki tengsiz azm-u shijoat, mardlik va donishmandlik ramzi bo’lgan bu mumtoz siymo buyuk saltanat barpo etib, davlatchilik borasida o’zidan ham amaliy, ham nazariy meros qoldiradi, ilm-u fan, madaniyat, bunyod korlik, din va ma’naviyat rivojiga keng yo’l ochdi. Amur Temur bobomizning churqur ma’noli hikmatlari xalqimizda qadimdan mavjud bo’lgan “Bilagi zo’r birni, bilimi zo’r mingni yiqar” degan maqolga g’oyat hamohang bo’lib, insonni doimo aql-idrok,adolat va yuksak ma’naviyat asosida yashashga da’vat etishi bilan e’tiborlidir. Darslikda keltirilgan “Amur Temur bobom” hikoyasida quydagicha keltirilgan: Bir kuni Amir Temur Tarag’ay Bahodir ko‘p qo‘ylarni o‘g‘li Temurbekka berib, Samarqand bozoriga jo‘natdi. U qo‘ylarning

hammasini ming oltinga sotib, pullarni bir qalandar odamlarga so‘zlab turgan ekan. Uning qo‘lida shae’r bitilgan qog‘oz bo‘lib, u der edi:

-Shu yozuvning qadriga yetib, kim mimg oltinga olsa, dunyoning oxiriga yetadi. Temurbekning himmati jo‘shib, ming oltinni qalandarga tutqazdi. U Temurbekka tikilib turdi-da, nasl-nasabini so‘radi. So‘ng tayin qildi:

-Otang oldig‘a borgil. Buni otang oldida o‘qi, borguncha ochma.

Temurbek qog‘ozni keltirib, padari buzukvoriga berdi. Ochib o‘qidilar.

Unda: “Zulm bilan dunyoda nom qoldirib bo‘lmaydi. Jamshid, Sulaymon, Iskandarlar o‘tib ketdi. Navbat senga ham yetishi tayin. Dunyoda keldingmi, yaxshilik bilan nom qoldir”, mazmunidagi ruboiy bor ekan.

-Barakallo, o‘g‘lim, oltinlarni ko‘p dono ishga sarf etibsan. Endi ming oltinga olg‘an ushbu hikmatga qat’iy rioya qilmoq lozimdir,-debdi.

Padari buzukvorining aytqonlarini Temurbek bosh ustida tutibdi.

Shu o‘rinda buyuk bobolarimizning ma’naviy olami xususida fikr yuritganda, Sohibqiron Amur Temur haqida alohda to’xtalishimiz tabiiydir. Chunki tengsiz azm-u shijoat, mardlik va donishmandlik ramzi bo’lgan bu mumtoz siymo buyuk saltanat barpo etib, davlatchilik borasida o’zidan ham amaliy, ham nazariy meros qoldiradi, ilm-u fan, madaniyat, bunyod korlik, din va ma’naviyat rivojiga keng yo’l ochdi. Amur Temur bobomizning chuqur ma’noli hikmatlari xalqimizda qadimdan mavjud bo’lgan “Bilagi zo’r birni, bilimi zo’r mingni yiqrar” degan maqolga g’oyat hamohang bo‘lib, insonni doimo aql-idrok,adolat va yuksak ma’naviyat asosida yashashga da’vat etishi bilan e’tiborlidir.

Buyuk Amir Temurning nabirasi, Benazir alloma Mirzo Ulug’bekning o’rta asrlar sharoitida nomoyon etgan ilmiy jasorati bugungi kun olimlarini ham hayratga solmasdan qo’ymaydi. Taqdir bu ulug’ zotning zimmasiga behad ulkan va mashaqqatli vazifalar yukladi. Buyuk sarkarda Amir Temur bunyod etgan sifatlarning vorisi bo’lishdek o’ta ma’suliyatli vazifa aynan unga nasib rtadi. Mirzo Ulug’bek qarib qirq yil mobaynida Movarounnahr diyorning donishmand hukmdori sifatida xalqning azaliy orzusi-tinchlik,

totuvlik, ilm-fan va madaniyatni taraqqiy toptirish yo'lida shijoat va matonat ko'rsatadi. Bu Benazir alloma o'zida minglab yulduzlarning harakatini jamlagan mukammal astronomik jadvalni yaratdi. Ulugbekning hayoti va ilmiy faoliyati xalqimiz ma'naviyatining poydevoriga qo'yilgan tamal toshlardan biri bo'lib, yurtboshimiz bundan necha zamonlar oldin fundamental fanlarni rivojlantirishga qanchalik katta ahamiyat berilganini ko'rsatadi. "Ziji jadidi Ko'ragoniy" deb nomlangan Ulugbek astronomik jadvali o'rta asrlarda lotin tiliga tarjima qilinib, Yevropa olimlari orasida keng tarqalgani fikrimizning yaqqol isbotidir.

O'zbek xalqi ma'naviy dunyosining shakllanishiga g'oyat kuchli va samarali ta'sir ko'rsatgan ulug' zotlardan yana biri- bu Alisher Navoiy bobomizdir. Biz uning mo'tabar nomi, ijodiy merosining boqiyligi, badiiy dahosi zamon va makon chegaralarini bilmasligi haqda doimo fahrlanib so'z yuritamiz. Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigani buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz nomoyondasi, millatimizning g'ururi, sha'n-u sharafini dunyoga tarannum qilgan o'lmas so'z san'atkoridir. Ta'bir joiz bo'lsa, olamda turkiy va forsiy tilde so'zlovchi biron-bir inson yo'qki, u Navoiyni bilmasa, Navoiyga sadoqat va e'tiqod bilan qaramasa. 4-sinf "O'qish kitob" ida keltirilgan Abduqodir Hayitovning "Navoiyning do'sti" hikoyasining mazmunida: Agar bu ulug' zotni avliyo desak, avliyolarning avliyosi, Mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir.

Donolarning donosi

Bobomiz Alisher Navoiy bolalaik chog'laridayoq hammaning e'tiboriga tushganlar. Eng avvalo , odobli bo'lganlar. Ko'p kitob o'qiganlar. Zehnli o'tkirligidan minglab misra g'azallarni yod bilganlar. Kichiklikda yizgan she'rlarida ustozlari ham qoyil qolishgan. Ona tilini yaxshi bilganlar. Fors va arab tillarini puxta o'rganganlar. Alisher Navoiy birinchilardan bo'lib ona

tilida “Xamsa” (besh doston) yozdilar. Navoiyning ko‘pgina g‘azallari hamon qo‘sish bo‘lib yangramoqda.

Navoiy bobomizning talay misralari xalq maqollari, hikmatli so‘zlarga aylanib ketgan. Jumladan:

Tilga ixtiyorsiz-

Elga e’tiborsiz.

Bu hikmatga eng avvolo o‘zlari amal qilganlar. Barcha asarlarida halolikka, mardlikka, yaxshilikka chaqirganlar. Hattoki shohning vaziri bo‘lganlarida ham xalq uchun ko‘p yaxshi ishlar qilib, el mehriga tushganlar.

Odam ersang demagil odami,

Onikim, yo‘q xalq g‘amidan g’ami

Satrlari buning isbotidir. Shoir bobomiz, ayniqsa, ustozlarini ulug‘laganlar:

Haq yo‘linda kim senga bir harf o‘qitmisht ranj ila,

Aylamat oson ems haqqin ado ming ganj ila.

Ya’ni: “Harf o‘rgatgan o‘qituvchining hurmat qilib, haqqini uzmoqchi bo‘lsang, xazinalardagi barcha oltinlar bilan ham uzolmaysan” deydilar.

Navoiy bobomiz asarlarini o‘qigan sari chuqur tushuna boramiz. Ba’zida esa o‘qib, o‘qishga qiynalarmiz. Axir yozilganiga besh asrdan oshsa-da! Shuning uchun ustozning “Bilganni so‘rab o‘rgangan olim”, degan nasihatlariga amal qilib, so‘rab-so‘rab o‘rganaveramiz.

Xullas, ul zotning ijodini daryoga o‘xshatamiz. Bu daryodan dunyo xalqlari bahramand bo‘lmoqda. Shuning uchun ham Navoiy bobomizning nomlari butun dunyoga mashhur.

Ulug‘ shoir Alisher Navoiyning Pahlavon Muhammad degan do‘sti bor ekan. Shoir uni juda yaxshi ko‘rar, o‘ziga qadrdon, sirdosh deb bilar ekan. Kunlardan bir kuni Pahlavon Mahmud kichik bir gunohi tufayli Sulton Husaynning qattiq g‘azabiga uchrabdi. Voqeа bunday bo‘libdi.: Sulton Husayn g‘azab otiga minib turgan bir paytda, Pahlavonning gunoh ish qilib qo‘yganini yetkazishibdi. Husayn Boyqaro:

-Pahlavonning saqol-mo‘ylovini qirib tashlanglar, so‘ng kaltadum libos kiydirib, ko‘cha-kuyda sazoyi qilinglar,-deb buyruq beribdi. Pahlavonning bunday jazoga giriftor bo‘lganini Navoiyga aytishibdi. Navoiy agar bu jazo amalga oshirilsa, Pahlavon Mahmudning izzat-nafsi kamsitilib, bunga chidolmay o‘tib qolishni anglabdi. Uni sharmandalikdan qutqazish harakatiga tushibdi. Tezlikda Husayn Boyqaro huzuriga yetib boribdi:

Sulton Bayqarom, ma’lumingizki, men va Pahlavon Muhammad yoshligimizdan bir il kiyinamiz, birga soqol-mo‘ylov qo‘yib, do‘st-birodar bo‘lib yuramiz. U boshqa kiyinib, men boshqa kiyib yursam, o‘rtadagi ahillik buzilib, gapimiz tuzsiz, o‘zimiz subutsiz bo‘lib qolamiz. Buyursangiz, mening ham soqol-mo‘ylovlarimni qirsinlar, menga ham xuddi Pahlavon Muhammadga berilgan kalta libos kiyg‘izib, do‘stim bilan birga ko‘cha aylantirsinlar,-debdii.

Navoiyning do‘stiga bo‘lgan sadoqatini, mehr-oqibatini ko‘rgan Husayn Boyqaro g‘azb otidan tushib, karam daryosi mavj olganini o‘zi ham bilmay qolibdi-da:

Pahlavonning gunohidan o‘tdim, jazo qoldirilsin,-deb buyiribdi.

Inson qalbining quvonch-u qayg‘usini, ezgulik va hayot mazmunini Navoiydek teran ifoda etgan shoir jahon adabiyoti tarixida kamdan kam topiladi. Ona tiliga muhabbat, uning beqiyos boyligi va buyukligini anglash tuyg‘usi ham bizning ong-u shuurimiz, yuragimizga avvalo Navoiy asarlari bila kirib keladi. Biz bu bebaho merosdan xalqimizni, ayniqsa, yoshlarimizni qanchalik ko‘p bahramand etsak, milliy ma’naviyatimizni yuksaltirishda, jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarni kamol toptirishda shunchalik qudratli ma’rifiy quroqlga ega bo‘lamiz.

Shu ma’noda keying paytda buyuk ajdodlarimizning so‘nmas dahosiga hurmat-ehtirom, uning boy ilmiy me’rosini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish xorijiy ellarda ham ortib borayotgan barchamizni quvontiradi. Buning tasdig‘ini dunyoning turli mamlakatlarida uning hayoti va faoliyati haqida e’lin qilinayotgan ilmiy va badiiy asarlar, ulug‘ ajdodlarimiz xotirasiga barpo etilayotgan yodgorliklar

misoloda ham ko‘rish mumkin. Shular qatori Belgiyada Ibn Sinoga, Litvada Mirzo Ulug‘bekka, Moskva, Tokio va Boku shaharlarida Alisher Navoiy bobomizga Misr poytaxti Qohira shahrida esa Ahmad Farg‘oniy xotirasiga o’rnatilgan muhtasham haykallarni eslash joiz.

Xalqimizning asl tabiatida mavjud bo’lgan ana shunday ilmiy-ma’naviy salohiyat va fazilat haqida gapirar ekanmiz, “Oqqan daryo oqaveradi”, degan naql beixtiyor yodimizga tushadi. Chindan ham, tariximizning qaysi davrini olmaylik, yurtimizda lim-u ma’rifat va yuksak ma’naviyatga intilish hech qachon to’xtamasligini, xalqimiz dahosining o’lmas timsoli sifatida eng og’ir va murakkab davrlarda ham yaqqol nomoyon bo’lib kelganini ko‘rishimiz mumkin.

Masalan, chorizm mustamlakasi davrida ma’rifat g’oyasini baland ko’tarib chiqqan jaded bobolarimizning faoliyati bunga yana bir torqin misol bo’la oladi. Mahmudxo’ja Behbudiy, Munavvarqori, Abdulla Avloniy, Is’hoqxon Ibrat, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho’lpon, Usmon Nosir kabi yuzlab ma’rifatparvarlar, fidoyi insonlarning o’z shaxsiy manfaati, huzur-halovatidan kechib, el-ulus manfaati, yurtboshimizni taraqqiy ettirish maqsadida amalga oshirgan ezgu ishlarni avlodlar xotirasidan also o’chmaydi.

Ana shunday ulug’ ajdodlarimizdan ilmiy-ijodiy merosi va ibratlari faoliyati keyinchalik diyorimizda Qori Niyoziy va Toshmuhammad Sarimsoqov, Habib Abdullayev va Bo’riboy Ahmedov, Oybek va G’afur G’ulom, Abdulla Qahhor va Zulfiya, Said Ahmad va Ozod Sharafiddinov, Lutfixonim Sarimsoqova va Halima Nosirova, Olim Xo’jayev, Razzoq hamroyev va boshqa ko’plab nomlari dunyoga tanilgan mashhur ilm-fan, adabiyot va madaniyat arboblarining yetishib chiqishiga mustahkam zamin bo’lib xizmat qiladi. Yuqorida zikr etilgan misollarni umumlashtirgan holda, muhim bir fikrni xulosa tariqasida ta’kidlashni zarur, bildik. Gap shundaki-tariximizda bunday Benazir siymolarning mavjudligi-takroran aytishga to’g’ri keladi-o’ziga xos bir fenomen, ya’ni o’ta noob hodisadir. Bu esa nafaqat bugungi, ayni paytda ertangi avlodlarimizning ham ma’naviy boyligiga

aylanib, xalqimizga hech narsa bilan o'lchab, qiyoslab bo'lmaydigan ruhiy kuch-quvvat va madad berish muqarar. Bundan tashqari, bola tarbiyasi ta'lim orqali amalga oshiriladi.

Talim-tarbiyani bevosita to'ldirib, shakllantirib va rivojlantirib boradi. Bu haqda asarda shunday fikr keltirilgan: Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi-bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasidir. Insonga xos orzu-intilishlirini ro'yobga chiqarish uning ongli hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy olamni bamisoli parvoz qilayotgan qushning ikki qanotiga qiyoslasak, o'ylaymanki, o'rinli bo'ladi" (o'sha kitob, 67-bet). Bola shaxsini tarbiyalashda Qur'oni Karim va hadisi sharif kabi asarlardan ham foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu asarlar kishilarni insoniylikka da'vat etish, ota-onani qadrlash, ilmni ulug'lash va tabiatgamehr qo'yish, oilani sevish, aql-idrokni rivojlantirish kabi ulug' fazilatlar, shuningdek, yuksak va komil inson bo'lishga da'vat aniq dalillar va misollar bilan ifoda etiladi. Hadisi sharifda ilm uni talab qilish ullamolar haqida ko'plab ma'lumotlar kelgan. Bularning hammasini jamlab, Islomning ilmga bo'lgan munosabati haqida tasavvur va shunga yarasha ahkomlar chiqarilgan.

4-sinf o'qish kitobining "Ajdodlarimiz-faxrimiz" bobida Ota-onani hurmatlash haqida : Har bir kishi uchun ulug' inson ota-onadir. Chunki ota-onha o'z farzandini nafaqat dunyoga keltiribgina qo'ymay uni ulg'ayytiradi kasb -kor beradi. Hayotda odamlar orasida butun umr o'rin topishi uchun jon kuydiradi. Atrofdagi kishilarga yaxshilik qilishi, jamiyatga manfaat keltirishi va yuksak odobi bilan hurmat e'tibor topishi uchun butun kuch-quvvati, ilmi va mehr-muhabbatini sarf etadi. Shuning uchun ham u farzandlarini, eng avvalo, baxtli bo'lishini orzu qiladi. O'z orzularini ham farzandlar baxt-saodatida ko'radi. Ota-onha Qur'oni Karim va hadislarda ham ulug'langan. "Jannat onalar oyog'i ostidadir", - deyiladi hadisi sharifda. Payg'ambarimiz (alayhissalom) shunday deganlar: "Hajga bormoqdan ko'ra ona haqqini saqlamoq senga yaxshiroqdir. Sen onangning rizosini istaki ollohning rizosi shundir".

Aql bilan ish tutgan farzand ota-onani izzat va hurmatlashishi lozimdir. Chunki ular farzand uchun o‘limga ham tayyor turadilar. Ota-onananing ishi farzandni parvarish qilish va yaxshilik o‘rgatishdir. Farzand aqlli va dono bo‘lsa, ota-onaning mehr-muhabbatini ado etadi. Agar farzand ota onaning ko‘nglini sal bo‘lsa-sa ranjitsa, ularning qalbini azoblagan bo‘ladi.

Ko‘rdinadiki, ota-onsi seni jon-dili bilan parvarishlab voyaga yetkazadi. Agar sen ularga nisbatan xato ish qilsang, sen hech yaxshilikka sazovor emassan. Chunki har kishi ota-onaning yaxshiligini bilmasa, birovning yaxshiliga baho berolmaydi.

I.2. 4-sinf “O’qish kitobi”da o’quvchi shaxsini shakllantirishning ma’naviy va axloqiy talablari

O’rta asrlarning ilk davrida Sharqda amalga oshirilgan buyuk ilmiy kashfiyotlar haqida gapirar ekanmiz, zamonaviy matematika, trigonometriya va geografiya fanlari taraqqiyotiga beqiyos hissa qo’shgan Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy nomini birinchilar qatorida tilga olamiz. U o’nlik pozitsion hisoblash tizimini, nol belgisi va qutblar koordinatalarini birinchilardan bo’lib asoslab berdi va amaliyotga tatbiq etdi. Bu esa matematika va astranomiya fanlari rivojida keskin burilish yasadi. Al-Xorazmiy algebra faniga asos soldi, ilmiy ma’lumot va traktatlarni bayon etishning aniq qoidalarini ishlab chiqdi, u asrtanomiya, geografiya va iqlim nazaryasi bo'yicha ko'plab ilmiy asarlar muallifidir. Allomaning dunyo ilm-fani rivojidagi xizmatlari umume'tirof etilgan bo'lib, Sharq olimlari orasida faqat uning nomi va asarlari “algoritm” va “algebra” kabi zamonaviy ilmiy atamalarda adabiylashtirildi.

Ahmad Farg’oniy tomonidan IX asrda yaratilgan “Astronomiya asoslari” fundamental asarida olamning tuzilishi, Yerning o’lchovi haqida dastlabki ma’lumotlar, sayyoramizning sharsimon ko’rinishiga ega ekani xususidagi

dalillar mavjud bo'lib mazkur kitob XVII asrga qadar Yevropa universitetlari asranomiya bo'yicha asosiy darslik sifatida o'qitib kelingan hamda Buyuk geografik kashfiyotlar davrida Klum, Megellian va boshqa sayohatchilarning kashfiyotlari uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qilgan. Ahmad Farg'oniyning amaliy yutuqlaridan biri uning o'rta asrlardagi asosiy astronomik asbob-usturlab nazaryasini ishlab chiqqani va shuningdek, Nil daryosidan "nilomer" degan, ko'p asrlar davomida suv sathini o'lchaydigan asosiy vosita sifatida xizmat qilib kelgan mashhur inshootni yaratgani bo'ldi. Yevropada Al-Faraganus nomi bila mashhur bo'lgan bu allomaning ilm-fan rivojidagi nufuzi shu qadar yuksak ediki, uning ismi sharafi yer kurrasidagina emas, balki samoda ham shuhrat topdi. O'n oltinchi asarda Oydagi kraterlardan biriga uning nomi berilgani bu fikrni isbotlaydi.

YUNESKO qaroriga muvofiq 1998 yilda Ahmad Farg'oniyning tavalludining 1200 yilligiga xalqaro miqiyosida nishonlandi. Bu buyuk ajdodlarimizning jahon sivilizasiyasi rivojiga qo'shgan ulkan hissasi, xalqimiz ilmiy salohiyatini yana bir e'tirofi bo'ldi. Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan Quva va Farrg'ona shaharlarida mutafakkir haykallari bunyod etildi. Garg'ona davlat universitetiga Ahmad Farg'oniy nomi berildi.

O'rta asrlarda sharq ilm fani rivojida Xorazm Ma'mun akademiyasi alohida o'rin tutgan. Ulkan kutubxona, madrasa, tarjimon va xattotlar maktabi kabi tuzilmalarga ega bo'lgan bu dargohda yuzdan ortiq allomalar, istedodli talabalar ilmiy izlanishlar olib brogan. Abu Nasr ibn Iroq, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Xo'jandiy, Ahmad ibn Muhammad Xorazmiy va Ahmad ibn Hamid haysaburiy kabi qomusiy olimlarning umumbashariy tafakkur rivojiga qo'shgan hissasi beqiyosdir.

Ibn Sino Noomi dunyo fani va madaniyati tarixiga zarhal harflar bilan bitilgan. Doimo yashil bo'lib turuvchi tropik o'simlik "Avisenniya" deb atalgan. Ko'plab mamlakatlarda ko'chalar nomi qo'yilgan, alloma shaafiga medal va mukofotlar ta'sis etilgan. Ibn Sinoning "Tib qonunlari" asari necha asrlar davomida Yevropaning eng nufuzli oil yurtlarda asosiy tibbiyot

darsliklardan biri sifatida o'qitib kelingani, dunyo miqiyosida "Meditisina", "Sog'lom turmush tarsi" degan tushunchalarni fundamental asosi bo'lib xizmat qilgani, albatta, chuqur hayotiy va ilmiy zaminga ega. Aniqroq qilib aytganda, bu Benazir allomaning butun ilmiy faoliyati dunyo taraqqiyotini insonparvarlik ruhida, ya'ni ma'naviy negizda rivojlantirishga ulkan ta'sir o'tkazadi deb aytishga barcha asoslar bor.

YUNESKO shafelida Xorazm Mamun akademiyasining 100 yilligiga nishonlangani, uning faoliyati qayta tashkil etilgani mamlakatimizda ajdodlar xotirasiga, ilm-fan rivojiga qaratilayotgan e'tiborning yorqin namunasidir. Hozir bu qadimiya va navqiron ilm maskanida Xorazm tarixi uning o'ziga xos madaniyati, ekologiyasi, yer va suv resurslarini o'rganish bo'yicha ilmiy izlanishlar dabom ettirilmoqda.

Mirzo Ulug'bek yurtimizning bir qator shaharlarida madrasalar qurdirgan, Samarcandda o'ziga xos ilmiy muxit, xozirgi tilde aytganda, akademiya tashkil etgan. U yerda 200 dan ortiq olim faoliyat yuritgan. Buyuk Amir Temurning nabirasi, Benazir alloma Mirzo Ulug'bekning o'rta asrlar sharoitida nomoyon etgan ilmiy jasorati bugungi kun olimlarini ham hayratga solmasdan qo'ymaydi. Taqdir bu ulug' zotning zimmasiga behad ulkan va mashaqqatli vazifalar yukladi. Buyuk sarkarda Amir Temur bunyod etgan sifatlarning vorisi bo'lishdek o'ta ma'suliyatli vazifa aynan unga nasib rtadi. Mirzo Ulug'bek qarib qirq yil mobaynida Movarounnahr diyorning donishmand hukmdori sifatida xalqning azaliy orzusi-tinchlik, totuvlik, ilm-fan va madaniyatni taraqqiy toptirish yo'lida shijoat va matonat ko'rsatadi. Bu Benazir alloma o'zida minglab yulduzlarning harakatini jamlagan mukammal astronomik jadvalni yaratdi. Ulug'bekning hayoti va ilmiy faoliyati xalqimiz ma'naviyatining poydevoriga qo'yilgan tamal toshlardan biri bo'lib, yurtboshimiz bundan necha zamonlar oldin fundamental fanlarni rivojlantirishga qanchalik katta ahamiyat berilganini ko'rsatadi.

Falaqiyot ilmining nazriy va amaliy masalari to'la qamrab olingan Ulug'bekning "Ziji" o'rta asrlardayoq Osiyo va yevropa mamlakatlarida keng

tarqalgan. Yevropalik astronom olimlar uni lotin, fransus, ingliz tillariga tarjima qilgan, sharhlar bitgan.

“Zoji Ulug’bek”, “Ziji jadidi Ko’ragoniy” nomlari bilan shuhrat qozongan asarda 1018 yulduzning o’rni va holati aniqlab berilgan. Yulduzlarning balandligi va ular orasidagi masofa, quyosh va oyning xarakati, ularning tutilish vaqtłari bayon qilingan. Bu xisob- kioqlar zamonaviy texnologiyalar orqali aniqlangan kuzatuv natijalaridan deyarli farq qilmaydi. Masalan, Ulug’bek hisobi bo’yicha bir yil 365 kun 6 soat 10 daqiqa 8 soniyani tashkil etadi. Bugungi kunda bir yil 365 kun 6 soat 9 daqiqa 6 soniyaga teng.

Istiqlol yillarida Mirzo Ulug’bekning hayoti va faoliyatini o’rganish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Davlatimiz rahbari 1994 yil mamlakatimizda Ulug’bek yili, deb e’lon qilindi. Osha yili Mirzo Ulug’bek tavalludining 600 yilligi xalqaro miqiyosda keng nishonlandi. Parij shahridagi YUNESKO qarorgohiga buyuk allomaning ilmiy merosi va uning ahamiyatiga bag’isghlangan anjuman o’tkazildi.

Mirzo Ulug’bek siyoshi xalqimiz hayotining ajralmas qismiga aylanib qolgan. Yurtboshimiz Ulug’bek nomi berilgan tuman, ma’naviyat maskanları, mahallalar, ko’chalar ko’p. Ota-onalar ezgu niyatlar bilan farzandlariga Ulug’bekning muborak ismini qo’yishadi. Bularning barchasi xalqimizning buyuk allomaga cheksiz hurmatidan darak beradi.

Butun dunyoga buyuk ajdodlarimizning so’nmas dahosiga hurmat-ehtirom, ularning boy ilmiy merosini o’rganishga qiziqish hamisha yuqori bo’lgan. Buning tasdig’ini turli mamlakatlarda ularning hayoti va faoliyati haqida ilmiy va badiiy asarlar yaratilgani ulug’ ajdodlarimiz xotirasiga yodgorlik barpo etilganida ham ko’rish mumkin. Belgiyada Ibn Sinoga, Litvada Mirzo Ulug’bekka, Maskva, Toki ova Boku shahrlarida Alisher Navoiy bobomizga Misr poytaxti Qohira shahrida esa Ahmad Farg’oniy xotirasiga o’rnatilgan muhtasham haykallar xalqimiz tarixiga chuqur hurmat ifodasidir.

Buyuk mutafakkir, olim,musiqachi, rasom va davlat arbobi, o'zbek adabiy tilining asoschisi Bobur ta'biricha, "Tili Andijon shevasi bilan rost" bo'lgan shoir Nizomiddin Mir Alisher Navoiydir. Butun turk dunyosi "Navoiyning shamsul millat" – quyoshi deb ulug'laydi. Alisher "Amiri kabr" (ulug' amir), "Amir ul - muqarab" (podshoxga yaqin amir), "Muqarabiy shohiy"(shohning eng yaqin kishisi), umonlariga musharaf bo'lgan.

Navoiy 7-8 yoshlaridan boshlab she'rlar yoza boshlagan va 15 yoshda shoir sifatida tanilgan. O'zbekcha she'rlarida "Navoiy" ("Navo"-kuy ohang, bahra, dard, g'am), forscha she'rlariga foni ("o'tkinchi")taxallusi bilan ijod qilgan Navoiy tarixchi Mirxon, she'r ilmining bilimdoni Atoulloh Husayniy, ko'p fanlarni egallagan Husayn Voiz Koshify kabi adiblarni tarbiyalagan. Shoirning "Xamsa", "Xazoyinul - maoniy" ("Chor devon"), "Devoniy foni", kabi lirik asarlari "Tarixi muluki Ajam", "Tarixi anbiyo va hukamo", "Nasoyim ul -muhabbat", "Xamsat ul- mutahayyirin", "Holoti Said Hasan Ardasher", "Holoti Said Hasan Ardasher", "Holoti Pahlavon Muhammad" "Mahbub ul-qulub", "Majolis un- nafois", "Muhokamat ul- lug'atayn" asarlari xalq orasida mashhurdir.

Alisher Navoiy o'zbek madaniyati taraqiyotida juda katta o'rinn tutadi. U milliy madaniyatimizni jahon madaniyati sahnasiga olib chiqqan ulkan adibdir. Shoir asarlarining asosiy g'oysi – chin insoniy fazilatlarini ulug'lash, vatanparvarlik samiy va sof muhabbatni kuylash va yuksak dunyo qarashni tarkib toptirishdan iboratdir.

Shoirning buyuk xizmatlaridan biri shuki, u o'zbek tilini davlat miqiyosiga olib chiqdi, bu tilni ham ilmiy ham badiiy til sifatida hech qanday boshqa millat tillardan qolishmasligini, bu til so'z boyligi jihatidan naqadar kengligi, dilbar va jozibaligi jihatidan nihoyatda rang-barang ekanligini "Muhokamatul - tayyin "("Ikki til muhokamasi") ilmiy asari bilan asoslagan bo'lsa, "Xamsa " asari bilan bu tilning badiiy jihatida nihoyatda boy ekanligini dalilladi. Bundan tashqari, shoh Husayn Boyqaro farmoni bilan unga davlat maqomi berilishini taminladi.

Shoirning Farhod, Shirin, Layli va Majnun, Bahrom va Dilorom kabi bir qancha yaratgan obrazlari xalqning sevimli qahramonlariga aylandi. U bu qahramonlari bilan o'zining yuksak orzularini buyuk g'oyalarini anashu o'lmas qahramonlari timsolida ifoda etdi. Shuning uchun ham shoir xaqli ravishta : Turk nazmida chu men tortib alam, Ayladim ul mamlakatni yaqqalam.-deb bejizga aytmagan. Uning "Muhokamat ul- lug'atayin", "Mezon ul -avzon", "Hasoyim ul muhabbat" kabi tilshunoslik, she'rshunoslik, tarix va tasavvufshunoslikka bag'ishlangan kitoblari hanuzgacha o'zining ilmiy-ta'limiy qimmatini boy bergani yo'q.

Tilimiz, tarix va adabiyotimiz muammolarini to'g'ri hal qilishda bu nodir tadqiqotlarga, xususan, yosh avlod qayta-qayta murojaat qilishi zarurdir. Shuni ta'kidlash joizki, yoshlarimiz Navoiy yodgor qoldirgan adabiy- ilmiy merosni qanchalik chuqur va puxta bilsa, ma'rifat, hurriyat, jur'at va jasorat sir-asrorini o'shancha teranroq egallaydi. Diliga Havoiy so'zлari o'mashgan odam, o'zi istasin-istamasin, odamiylik sharafi, hayot zavq –shavqi va komillik kuch-kudratini keng idrok etadi. Navoiy saboqlariga amal qilgan kishi o'z-o'zidan xalq dardu tashvishlariga sherik bo'lishga bel bog'laydi. Fikrni – fikrsizlikka, ilm ma'rifatni – nodonlik, gumrohlik va jaholatga qarshi qurol o'rnida ishlatadi. Mutafakkir bobomizning ta'kidlashlariga ko'ra esa:

Haqni botildin birovkim qildi farq,
Adli birla ravshan etti G'arbu Sharq.

Navoiyni mehr va ixlos ila yetarli darajada bilish- dinu diyonat, imonu e'tiqod, muruvvat va shafqat kuchiga ishonch demak.

Inson kamolotining asosida tarbiya yotadi. Uning bu hayotdan olgan bilimi, tajribasi va faoliyatining mezoni tarbiya tarozisida o'lchanadi. Ayniqsa, yosh avlod dono xalqimiz ta'biri bilan aytganda, go'yoki niholga qiyoslanadi.U qanchalik erta mehr bilan parvarish qilinsa,u shunchalik to'g'ri, sermeva va ko'rkam bo'lib rivojlanadi. Shuning uchun ham ulug' o'zbek pedagogi,buyuk ma'rifatparvari Abdulla Avloniy tabiya xususida bejiz aytmagan:"Tarbiya biz uchun yo hayot, yo najot, yo halokat, yo saodat masalasidur...". Xususan,

hozirgi davrda yoshlarni milliy istiqlol g'oyalari ruhida tarbiyalash, ular ongiga milliy urf-odat, an'ana, rasm-rusm va qadriyatlarimizni singdirish pedagogik mas'uliyat hamda burch-vazifalarimizga aylanib qolgan. Ularni har tomonlama barkamollik ruhida tarbiyalash bu sohadagi faoliyatimizning negizini, maqsad mohiyatini tashkil etadi. Zero, milliy istiqlol tarbya mazmunida vatanparvarlik, o'zaro do'stlik, hamjihatlik, insonni sevish, mehr-oqibat, ota-onani qadrlash, birov larga yaxshilik ko'rsatishni o'zining hayotining mazmuni sifatida qarash, iymon, rostgo'ylik, shirinsuxanlik, xushmuomalalik, ezgulik kabi milliy odat va qadriyatlarimizni egallashga da'vat turadi.

Yoshlarni milliy istiqlol g'oyasi ruhida tarbiyalsha Prezidentimiz asarlari, ayniqsa, "Yuksak m'anaviyat-yengilmas kuch" asarida ifoda etilgan vatanparvarlik, o'z yurtini sadoqat bilan sevish, ajdodlar ishini va me'rosini ardoqlash, milliy urf –odatlar, qadriyat va an'analarni ulug'lash kabi yuksak ma'naviy fazilatlar ruhida tarbiyalash hozirgi davr pedagoglari oldida muhim burch va vazifa etib belgilangan. Har bir dars va mashg'ulot shunchaki tarbiyaga da'vat etuvchi chqairiqlardan iborat bo'lib qolmay u bevosita oquvchi ongiga ta'sir etmog'i lozim. Ularning barchasi esa, o'quvchi shaxsini kamol toptirishga qaratilmog'i darkor. Zotan, yurtboshimiz aytganidek : "Vatanimizning kelajagi xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro'-e'tibori avvalambor farzandlarimizning unib-o'sib, ulg'ayib, qanday inson bo'ib, hayotga kirib borishga bog'liqdir. Biz bunday o'tkir haqiqatni hech qachon unutmasligimiz kerak (o'sha kitob, 1-bet). Buning uchun esa har bir darsda bola ma'naviyatini ulg'aytirishga erta yoshlikdan katta ahamiyat berishga e'tiborni qaratmoq lozimdir. Chunki, yurtboshimiz aytganidek: "Ma'naviyat insonni ruhan poklanishi, qalban ulg'ayishiga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir. (o'sha kitob, 19-bet) .

Bundan tashqari, bola tarbiyasi ta'lim orqali amalga oshiriladi. Talim-tarbiyani bevosita to'ldirib, shakllantirib va rivojlantirib boradi. Bu haqda

asarda shunday fikr keltirilgan: “Ta’limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta’limdan ajratib bo’lmaydi-bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasidir. Insonga xos orzu-intilishlagini ro’yobga chiqarish uning ongli hayot kechirishi uchun zarur bo’lgan moddiy va ma’naviy olamni bamisoli parvoz qilayotgan qushning ikki qanotiga qiyoslasak ,o’ylaymanki, o’rinli bo’ladi” (o’sha kitob, 67-bet). Bola shaxsini tarbiyalashda Qur’oni Karim va hadisi sharif kabi asarlardan ham foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu asarlar kishilarni insoniylikka da’vat etish, ota-onani qadrlash, ilmni ulug’lash va tabiatgamehr qo’yish, oilani sevish, aql-idrokni rivojlantirish kabi ulug’ fazilatlar, shuningdek, yuksak va komil inson bo’lishga da’vat aniq dalillar va misollar biblan ifoda etiladi.

Hadisi sharifda ilm uni talab qilish ullamolar haqida ko’plab ma’lumotlar kelgan. Bularning hammasini jamlab, Islomning ilmiga bo’lgan munosabati haqida tasavvur va shunga yarasha ahkomlar chiqarilgan.

3-sinf o’qish kitobining “Go’zal fazilat-inson husni” bobida Ota-onani hurmatlash haqida : Har bir kishi uchun ulug’ inson ota-onadir. Chunki ota-onan o’z farzandini nafaqat dunyoga keltiribgina qo’ymay uni ulg’ayytiradi kasb -kor beradi. Hayotda odamlar orasida butun umr o’rin topishi uchun jon kuydiradi. Atrofdagi kishilarga yaxshilik qilishi, jamiyatga manfaat keltirishi va yuksak odobi bilan hurmat e’tibor topishi uchun butun kuch-quvvati, ilmi va mehr-muhabbatini sarf etadi. Shuning uchun ham u farzandlarini, eng avvalo, baxtli bo’lishini orzu qiladi. O’z orzularini ham farzandlar baxtsaodatida ko’radi. Ota-onan Qur’oni Karim va hadislarda ham ulug’langan. “Jannat onalar oyog’i ostidadir”,- deyiladi hadisi sharifda. Payg’ambarimiz (alayhissalom) shunday deganlar:

Hajga bormoqdan ko’ra ona haqqini saqlamoq senga yaxshiroqdir. Sen onangning rizosini istaki ollohning rizosi shundir”.

Aql bilan ish tutgan farzand ota-onani izzat va hurmatlashishi lozimdir. Chunki ular farzand uchun o’limga ham tayyor turadilar. Ota-onananing ishi farzandni parvarish qilish va yaxshilik o’rgatishdir.

Farzand aqlli va dono bo'lsa, ota-onaning mehr-muhabbatini ado etadi. Agar farzand ota onaning ko'nglini sal bo'lsa-sa ranjitsa, ularning qalbini azoblagan bo'ladi.

Ko'rdinki, ota-onsi seni jon-dili bilan parvarishlab voyaga yetkazadi. Agar sen ularga nisbatan xato ish qilsang, sen hech yaxshilikka sazovor emassan. Chunki har kishi ota-onaning yaxshiligini bilmasa, birovning yaxshiligiga baho berolmaydi.

Otaning farzandga mehr-muhabbati darslikdagi:"Bobur va Humoyun" parchasida (Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" romanidan) haqiqiy hayotiy voqeaning badiiy tasviri keltirilgan.Unda otaning farzanga cheksiz mehri, sadoqati mahorat bilan tasvir ettirilgan:

Bobur dovyurak, epchil, kuchli, o'ta idrokli inson bo'lgan. U ona yurti Andijonni, oilasini qadrlagan, farzandlarini sevgan. Farzand uchun o'z jonini berishga tayyor turgan otadir.

... Humoyun betob bo'lib qoladi. U tuni bo'yи alahlab behush yotadi.

Saroy tabiblari bu og'ir dardga hech bir davo topolmadilar. Humoyunning onasi Mohimbegim yum-yum yig'laydi. Bobur o'rnatadi. Og'ir paytlarda Bobur suyangan, undan yordam olishga o'rgangan odamlar hozir ham biron chora topishni undan kutadilar. Lekin hozir, Boburning o'zi ham, choraszizlikdan qiynalardi.

Bobur o'ziga umid bilan qarab turgan odamlarning orasidan o'tib, Humoyunning to'shagi yoniga keldi.

-Humoyun, jigarbandim. Sening betoqatligingga men toqat keltiray. Sening shu og'ir dardingni xudo sendan olib, menga bersin...

Gulbadanbeginning yozishicha, o'sha kuniyoq Humoyunning ahvoli yaxshilana boshlabdi. Boburning esa mazasi qochib, yotib qolibdi.

Farzand uchun eng ulug' siymo ota-onadir. Ayniqsa, onani sevish, unga umrbod sadoqat ko'rsatish har bir farzand uchun ham farz,ham qarzdir. Onani rozi qilish haqida g'oya va qarash hadislarimizda ham to'la o'z ifodasini topgan.

Bir kishi Rasulluohdan:"Men yaxshiligimni kimga qilsam bo'ladi?"-deb so'rabdi. "Onangga",-debdilar Rasulloh. U kishi shu savolni uch marotaba qaytaribdi. Rasulloh "Onangga" deyaveribdilar. To'rtinchi marotaba yana so'rabdi. Shunda "Otangga va yaqin bo'lgan qarindoshlaringga"-debdilar. Quyidagi keltirilgan "**Otamiz**" va "**Onamiz**" she'rida ham ota-onaga bo'lgan mehr-muhabbat tasvirlangan.

Fikr etib insof qilsak jumlamiz,
 Otamizdur eng muqaddas qilmabmiz.
 Toki tongdin kechgacha mehnat etib,
 Tarbiya qilgan bizi, zahmat chekub
 Ya'ni boqqan osh-u non bizga topub.
 Ustozimiz yoz-u qish to'n-la yoqub.
 O'zi och qolsa, bizi qoldirmadi,
 O'ynadik, mehnatga hech soldirmadi.
 Biz mana mактабда yurgaymiz o'qib,
 Pul topар biz-chun ato mehnat kutub.
 Otadin kim boshqa bizga mehribon?
 Otamiz qurban etur bizlarga jon.
 Otamiz bo'lsun desak bizdan rizo,
 O'qisak ham rozi, ham qilgay duo.
 Otamizdan ham muqaddas onamiz,
 Biz uchun bo'lguchi chin qurbanimiz...

Shoir keyingi misralarda onaning farzandga cheksiz mehrini ifoda etadi:

Parcha g'osht erdik tug'ilgan vaqtimiz,
 Onamizning bag'ri o'ldi taxtimiz.
 Kechalar sovuq beshiklarni quchub,
 Tutdi ko'krak, shirin uyqudan kechub.
 Ikki-uch yil bag'ri uzra ko'tarib,
 Katta qildi o'zi mehnatda horub.

Jonu dilda asradi bizni suyub,
 Dedi bizni, boshqa orzuni qo'yub.
 Og'risa bir joyimiz, yig'lab yurub,
 Har eshikni kezdi doru axtarib.
 Ya'ni yo'q bizga anodek mehribon,
 Siynaga qalqon, bosh uzra soyabon.
 Bizga ham lozim ani shod aylasak,
 Bizga qilgan xizmatin yod aylasak.

”O'qish kitobi“da Yayra Sa'dullayeva **”Yordam berdi“** hikoyasi ham keltirilgan:

Farida bugun ancha barvaqt turdi. Qarasa, hammadan oldin uyg'onib nonushta tayyorlaydigan onasi negadir hali ham yotibdi. Darrov uning yotoqxonasiga mo'raladi. –Voy, turdingmi, qizim?-negadir onaning ovozi g'alatiroq eshitildi.

-Vaqtli ketaman, navbatchiman,-dedi Farida. Inobat opa zo'rg'a o'rnidan turdi. U gazga qo'ygan choy birpastda qaynadi. Qizining oldiga yumshoqqina non va yumshoq qo'yganda boshi aylanib ketdi. Farida onasining rangi oqarib ketganini sezmadni.

Navbatchilik juda yaxshi o'tdi. Hatto o'qituvchilardan biri bugungi navbatchiga “besh” baho qo'ydi. Dars tugagach, hamma sinfdoshlar bolalar teatiga, yangi tomosha ko'rigiga borishmoqchi bo'lishdi.

Farida uyiga shosha-pisha keldi. U papkasiga qo'yib, qozonga qaradi. Chunki har kuni maktabdan qaytishiga onasi issiq ovqat tayyorlab turadi. Bu gal qozon bo'm-bo'sh eshitildi:

-Farida, keldingmi, qizim? Ukangaga qaragin, men...-dedi-yu, bo'g'ilib-bo'g'ilib yo'tala boshladi.

Men betobman, bu gal bormasang, keying gal borasan.

-Bormasam bo'lmaydi.O'rtoqlarim kutadi, -dedi-yu, “ketdim” deganicha chopqillab chiqib ketdi.

Chaqaloqning uyqusi kelib g'inshir, Inobat opaning isitmasi esa borgan sari ko'tarilib borardi. Shu payt Faridaning sinfdoshi Shohida uyg'a kirib keldi. U yig'layotgan chaqaloqni qo'liga oldi va uning og'ziga so'rg'ich soldi. Chaqaloqning ko'zi ilina boshladi. Shohida uxbab qolgan bolani ohistagina karavotga yotqizdida, paltosini yechdi. Termometrni silkitib tashlab, Inobat opaga uzatdi. O'zi esa birpasda achchiq choy damlab keldi. Termometr simobi ko'rsatgan nuqtaga qaradi-yu, yuragi "shuv" etib ketdi. Nuqta 39⁰ da edi. Inobat apaning hay-hayiga qaramay, u telefonda "Tez yordam" mashinasini chaqirdi. Opaning ertadan beri tuz totmaganini bilib, yovg'on xo'rdaga unnab ketdi. Bola big'illagan edi, uni boshqatdan yo'rgaklab sutini ilitib og'ziga tutdi. Bu oradan xo'rda pishda. Uni kosaga suzib, qatiq aralashtirdi-da, Inobat opaga olib keldi. Istamasa ham zo'rlab ichirdi. Endi kosani yuvib bo'lган edi, "Tez yordam" kelib qoldi.

Shifokor bemorga ukol qildi. Unga qimirlamay yotishni tayinlab, bir necha xil dori yozib berdi. Unga qimirlamay yotishni tayinlab, bir necha xil dori yozib berdi.

-Oyingni ehtiyot qil. Urintirib qo'yma,- deb tayinlashdi.

Shohida o'z onasi kasal bo'lgandek tashvish tortdi. Shifokor ketgach,dorixonadan dori olib keldi. Bemorga ichirdi.

Haytovur, Nurilla aka kelib qoldi. Shohida ozod bo'ldi. Uketa turib: "Tezroq sog'aying, opoqijon",- dedi-da, ko'chaga chiqdi. Ko'chada Faridaga duch keldi.

-Nega teatrga bormading, rosa maza qildik,- dedi Farida.

-Ishim bor edi,-deb qo'ya qoldi Shohida.

Shohida uyiga yetib borsa, hali onasi ishdan kelmabdi. U darhol kiyimlarini o'zgartirib, oshxonaga kirdi. Hademay onasi keladi. Hech bo'lmasa ovqat tayyorlab turmoqchi bo'ldi.

Kitob qadim-qadimdan e'zozlangan. Ota-bobolarimiz kitobni qo'liga olganda, uni o'pib ko'zlariga surtganlar. Bu "Bizga bilim berasan, seni ko'z

qarochig’imizdek asraymiz” deganidir. Uning varag’ini yirtish, iflos joylarga qo’yish gunoh sanalgan. Kitobni muqaddas deb bilganlar.

Kitob-qadrdon do’st.U hech qachon xiyonat qilmaydi.Balki hayot so’qmoqlarida qiynganiningda hamdard,sirdosh bo’lib, yo’l ko’rsatadi, rahnamolik ko’rsatadi.Shuning uchun kitobni har ma’rifatli inson qadrdon yo’ldosh sifatida bilishi zarurdir:

Kitobim qo’limda
Kitobim qo’limda,
Qaranglar qaranglar,
O’qisam so’zları
Tilimda jaranglar
Kitobim qo’limda
Ma’nosi ko’nglimda
Kitobim ajoyib
Juda ko’p she’ri bor.
Eng yaxshi odoblar
Yozilgan yeri bor
Kitobim qo’limda
Ma’nosi ko’nglimda

Xulosa qilib aytganda, nutq tafakkurining mahsuli. U shaxsning jamiyat faoliyatidagi o’rninibelgilaydi.Zotan, insonning butun umriga ham mazmun kasb etishiga qodir kuch-qudratga ega salohyatli o’chmas alangadir.

”O‘qish kitobi“darsligida taniqli yozuvchi Tohir Malikning o’quvchilarga qarata ”Bilib qo’yki, seni vatan kutadi“ degan matni asosida vatanparvarlik tuyg‘usini yorqin misollarda dalillydi:

Aziz bolajonlarim! Men sizlarga murojaat etmoqchiman. Kichkintoylarga havasim kelyapti. Chunki, siz oddiy maktab o’quvchisi emas, Siz mustaqil O‘zbekistonning dastlabki o’quvchilarisiz. Siz bugun faqat maktabga emas, balki ozod Vatanning kelajagi sari qadam qo‘ydingiz. Kelgusida

O‘zbekistondek qudratli mamlakatning prezidenti, tashqi ishlar vaziri, siz bo‘lasiz. Oradan 25-30 yil o‘tib, ulug‘ olim sifatida jahonga dong taratasiz.

Bu gaplar quruq orzu emas. Haqiqatda shunday bo‘lishi kerak. Biz O‘zbekistonni mustaqil davlat deb e’lon qildik. Lekin bu mustaqillikni mustahkamlash uchun hali ko‘p dovonlar oshiladi, sinovlar yengib o‘tiladi. Buning uchun siz ham mehnat qilasiz, ter to‘kasiz.

Biroq ozod mamlakatning chin farzandi bo‘lish uchun hozirdan tayyorlanishingiz shart. Hozir sizdan ko‘p narsa talab qilmaydi. Siz uchun eng muhim o‘qish. Qur’onda ham, Muhammad alayhissalom hadislarida ham o‘qishga dav’at etilgan ekan. Bu bejiz emas. Faqat ilm yaxshilik, yorug‘lik yo‘liga boshlaydi.

Siz Yaponya, Amerika olimlari kibernetika ilmini bizning bobomiz al-Xorazmiydan o‘rganganini bilib olasiz. Beruniy, Farobi, Ulug‘bek, Ali Qushchi singari olimlarimiz hayoti bilan tanishasiz. Oqibatda yuragingizda faxr hissi uyg‘onadi. Ana shu faxr mustaqilligimizning mustahkamlaydi. Yuragimizda ”Men O‘zbekman!“ degan faxr bo‘lishi shart. Shundagina mustaqilligimizni hech kim toptay olmaydi.

Bob fasllari mavzusi yuzasidan quyidagi to‘xtam va xulosalarga kelindi:

1. O‘zbek xalqi azal –azaldan o’zining ilimliy, zakiy va jahonga mashhur farzandlari bilan shuhrat qozongan.Ularning jahoniy ilimlaridan nafaqat O’rta Osiyo, balki G’arb mamlakatlari ham keng foydalanib kelmoqdalar. O’rta asr olimlari Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino va Forobiy kabi qomusiy olimlar jahon tamadduniga o’zlarining bilimlari va ijodlari bilan munosib ta’sir ko’rsaddilar.
- 2.Xuddi shuningdek ulug’ alloma Najmiddin Kubro, Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhamad Boburlar ham o’z hayoti va ijodi bilan mamlakat ijtimoiy taraqqiyotida munosib o’rin egalladilar.Ularning har birini hayoti va ijodini o’rganish, Vatan ravnaqi uchun kurashish, yurtni qalb qo’ri bilan sevish ulg’ayib kelayotgan yosh avlod uchun hayot mayog’i bo’lib, xizmat qilishi shart va lozim.

3. Yosh avlodni vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, ularni yuksak axloqiy ruhda kamol topdirish muhtaram Yurt Boshimizning asarlarida ifodalangan, maqola va chiqishlarida bayon etilgan g'oyaviy qarashlari orqali o'z tajjasumini topmog'i lozim.
4. Yosh avlodni yuksak insoniy fazilatlar, axloqiy qarashlar ruhida tarbiyalashda xalq og'zaki ijodi namunalari, urf-odat, udum, anana va qadriyatlar ifodalangan rivoyat va afsonalar, maqollar va naqillar muhim vosita va omil bo'lib xizmat qiladi.
5. Darslikda keltirilgan ulug' olim va shoirlarning hayoti va hamda ijodiga bag'ishlangan matnlar mazmuni va g'oyaviy yo'nalishlari o'qituvchidan ushbu sohada chinakam izlanish, tasavvur va tafakkurni talab etadi.

II Bob

4-sinf“O’qish kitobi” darsligidagi “Ajdodlarimiz – faxrimiz “bo’limi asosida o’quvchilarda yuksak insoniy fazilatlarni shakllantirishning metodik usullari

II.1.Bo’limdagi ulug’ ajdodlarimiz siymosi keltirilgan matnlar asosida o’quvchilarni insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash

Yosh avlodni barkamollik ruhida tarbiyalash ta’lim-tarbiya jarayoning tub mohiyatini tashkil etadi. Barkamollik ruhida esa bolani nafaqat jismoniy o’sish, balki har tomonlama aqliy, ma’rifiy va ma’noviy kamolotini belgilaydi. Ma’naviy kamolot esa o’quvchin ona Vatanga, xalqimizga munosib farzand sifatida ulg’aytirish demakdir. Bu yo’lda esa uni mard, jasoratli va kurashuvchan qilib ulg’aytirishni talab etadi. Muhtaram Yurtboshimiz bu haqda shunday degan edi: “Bu yorug’ olamda eng buyuk jasorat nima, degan savolga hech ikkilanmasdan, eng buyuk jasorat- bu ma’naviy jasorat deb javob bersak, o’ylaymanki, yanglishmagan bo’lamiz.!”³

Shunday ekan, ma’naviyatning asosi-yurtni sevish, tuproqni ardoqlash va ona xalqimizga cheksiz mehr tuyg’usini tarbiyalash-Vatanga e’tiqod ruhini shakllantirishdek buyuk tuyg’uni uyg’otishdan iboratdir. Shunday yuksak tuyg’u erta yoshlikdan bola qalbiga singdirilmog’I lozim. Ayniqsa, 4-sing “Ajdodlarimiz-faxrimiz” darsligidagi bo’limidagi she’r, ertak va rivoyatlardan iborat badiiy asarlarni bolalar qalbiga jo etish-shu soha mutaxassislari uchun juda katta izlanish hamda pedagogik tajriba, metodik tayyorgarlikni talab etadi.

Bo’limda insoniy tuyg’ularning eng muhim sharti odob qoidalari-vatanni sevish undan har bir giyohni ardoqlash g‘oyasi har bir badiiy asarda to’la o’z ifodasini topgan. Darslikda o’quvchilarni erta yoshlikdan ham ma’naviy va

axloqiy ruhda tarbiyalashda badiiy adabiyotning o'rni va ahamiyati nihoyatda yuksakligi alohida sezilib turadi. Chunki har bir yoshni nafaqat ilmli, balki o'zlikni anglash, buyuk

-3.Mirziyoyev Sh. M. O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'shlangan nutqidan. Xalq so'zi, 2017, 1-oktabr. 2-sahifa

avlod vorisi ekanligini his qilib tarbiyalash har bir pedagog faoliyatining asosini tashkil etadi. Bu esa boshlang'ich sinf o'quvchilarini komillik ruhida tarbiyalashda ta'lim – tarbiya jarayoning ilk bosqichi sifatida ham muhim davr bo'lib hisoblanadi. Bu bosqichda bolalar dunyoqarashida muayyan tushuncha va tasavvurlar, odatiy tajribalar, sa'y- harakatlar mavjud bo'lsa-da, ular hali shakllanmagan, bu sa'y harakatlarning mazmun mohiyati, va maqsadini to'la anglamagan holda bajarishga harakat qiladilar. O'qituvchi esa anashu sa'y harakatlarni ularga mazmunan his qilishga, odatlarning mazmunini umumlashtirishga, ular haqida munosabat va mulohaza yuritishga o'rgatmog'i lozim .

"Ajdodlarimiz-faxrimiz" bo'limi Hamdam Sodiqovning "To'maris" hikoyasi bilan boshlanadi. Yozuvchi bu hikoyani garchi qahramon haqidagi afsona asosida yaratgan bo'lsa-da, hayotiy, xuddi kundalik ishtimoiy voqealar zamirida yaratilgandek his uyg'otadi.

Voqeа shunday boshlanadi.Fors hukumdori Kurush massagetlar yurtidan qaytgan elchisi bilan suhbat quradi.Elchi shunday deydi:

- Massagetlar g'alati xalq ekan, u yerning kimlari juda oddiy ekan shahanshohim, lekin ularda oltin-kumush serobga ekan.

Shundan so'ng, sarkardalar masssagetlarni oltin-kumish uchun uzoq o'lkalardan kelishmaganmi deyishdi?

- massagetlar xalqi uchun ro'zg'or buyumlarida, kiyimi-yu quroilda oltinni bir bezak qatori ko'rilar ekan,

- Lashkarboshi-yu, mulozimlar hayratlanib elchi hikoyasini eshitardilar.

- Ammo bu xalq sharob va may nimaligini bilishmas ekan.

Bu xalqning qizlari yigitlar qatori ham uloq choptirisharkan. Qizlari chavandozlik va qilichbozlikda ulardan sira qolishmas ekan.

-Muddaomiz ne bo'ldi? sergaklik bilan so'radi Kurush.

Masssagetlar malikasi taklifini rad etganini, shahonshohingizga men emas, yurtim kerag, hech qachon turmush qurmasligni aytди. Sababi-o'g'li katta bo'lib qolgan mish.

-Necha yoshda ekan?

-O'n sakkizda , shahanshohim uni ko'rdim ismi Sparganiz bahodir va kelishgan yigit.

Shahjanshoh mulozimlarda biridan so'radi.

Sen nima maslahat berasan, Krez?

-Menga qolsa, bu xalq bilan yaxshi aloqa qilib qaytaylik, jangovor xalq ekanini bildik, ularning yigitlarida yaxshi qo'shin yollasa bo'ladi. Agar ular bilan do'st bo'lsak...

Kurush Krezning gaplariga tan bersa-da, boshqa maslahatchidan ham fikrini bilishni istadi.

-Sen nima deysan, Artabaz?

-Yana elchi yuborib ko'rsak. Taklifimiz yerga qolsa, urush bo'lishini tushuntirsak, shahanshohim!

Kurush bu taklifni ma'qulladi.

Massagetlar malikasi To'maris forslar yuborgan elchini so'zlarini tinglab bo'lgach, javoban:

-Biz urushdan qo'rqlaymiz va o'z ona ona yerimizni himoya qilamiz. Shohingga ayt.

Ana shu voqeа sabab forslar va massagetlar o'rtasida keskin kurash yuz beradi. Dono To'maris dushmanlarni O'kuz daryosidan o'tib, massagetlar yerida jang qilishga da'vat etadi. Bu jangda Kurush hiylagarlik yo'li bilan Sparganizni qo'lga oladi. Sharob tufayli asir tushgan Sparganiz o'zini anglagach o'ldiradi. Bundan qattiq g'azablangan To'maris Kurushni jang maydonida asir olib, uning boshini qon to'la xumga solib shunday deydi:

-Sen tirikligingda odam xuniga to'ymagan eding. Endi o'lganiningda qondan to'y- deb xalq oldida g'azab bilan so'zlaydi.

Bu tarixiy dalillarga asoslangan vatanparvarlik namunasidir.

Biz bu hikoyani o'qib To'maris qahramonining kuchliligin jasurligini bilib olamiz. Uning o'z vataniga, ona yuriga sadoqatini ko'rishimiz mumkin. Bunday ajdodlarmiz bizning faxrimizdir.

Ulug' xalq farzandlaridan biri, qomusiy olim Abu Rayhon Beruniydir . Beruniy o'zining butun umri davomida juda ko'p fanlar bo'yicha ijod qildi va 100dan ortiq asarlar yaratdi. Uning geofizika, tarix, geografiya, adabiyot va davlatchilik sohasidagi ilmiy asarlari hozirgi kunda ham qadr – qimmatini yoqotgani yo'q. Bugungi kunda ham olim merosi ijtimoiy hayot taraqiyotida munosib xizmat qilib kelmoqda.

Istiqlol yillarda Mirzo Ulug'bekning hayoti va faoliyatini o'rganish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Davlatimiz rahbari 1994 yil mamlakatimizda Ulug'bek yili, deb e'lon qilindi. Osha yili Mirzo Ulug'bek tavalludining 600 yilligi xalqaro miqiyosda keng nishonlandi.

Mirzo Ulug'bek siyoshi xalqimiz hayotining ajralmas qismiga aylanib qolgan. Yurtboshimiz Ulug'bek nomi berilgan tuman, ma'naviyat maskanlari, mahallalar, ko'chalar ko'p. Ota-onalar ezgu niyatlar bilan farzandlariga Ulug'bekning muborak ismini qo'yishadi. Bularning barchasi xalqimizning buyuk allomaga cheksiz hurmatidan darak beradi.

Butun dunyoga buyuk ajdodlarimizning so'nmas dahosiga hurmat-ehtirom, ularning boy ilmiy merosini o'rganishga qiziqish hamisha yuqori bo'lgan. Buning tasdig'ini turli mamlakatlarda ularning hayoti va faoliyati haqida ilmiy va badiiy asarlar yaratilgani ulug' ajdodlarimiz xotirasiga yodgorlik barpo etilganida ham ko'rish mumkin. Belgiyada Ibn Sinoga, Litvada Mirzo Ulug'bekka, Maskva, Toki ova Boku shaharlarida Alisher Navoiy bobomizga Misr poytaxti Qohira shahrida esa Ahmad Farg'oniy xotirasiga o'rnatilgan muhtasham haykallar xalqimiz tarixiga chuqur hurmat ifodasidir.

Buyuk mutafakkir, olim,musiqachi, rasom va davlat arbobi, o'zbek adabiy tilining asoschisi Bobur ta'biricha, "Tili Andijon shevasi bilan rost" bo'lgan shoir Nizomiddin Mir Alisher Navoiydir. Butun turk dunyosi "Navoiyning shamsul millat" – quyoshi deb ulug'laydi. Alisher "Amiri kabr" (ulug' amir), "Amir ul - muqarab"(podshoxga yaqin amir), "Muqarabiy shohiy"(shohning eng yaqin kishisi), umonlariga musharraf bo'lgan.

Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad Beruniy 973 yilning 4-sentabrida Xorazmda Fir (Kat) shahri yaqinida tug'ildi.U ham, Ibn Sino kabi, feodal hukmronlarining ta'qibiga duch kelib, ko'p yillar o'lkadan-o'lkaga, viloyatdan viloyatga ko'chib yurdi. Beruniy juda og'ir sharoitlarda ilmiy tadqiqot ishlari bilan shug'ullanadi. U 1048 yida G'aznada vafot etdi.

Beruniy ensiklopedist olim, zo'r astranom, geolog, tarixchi, faylasuf, filolog va shoirdir. U astranomiya, geologiya, gidrostatika va geografiya sohasidagi rasionalistik fikrlari bilan Kopernink, Leonardo daVinch'i va boshqa olimlarning kashfiyotlarini ko'p jihatdan oldindan patqagan edi. U falsafa, tapix va boshqa gumanitar fanlar sohasida zamonasining ilmiy saviyasidan ancha yuqori ko'rila oldi. Beruniy 150ga yaqin asar yozdi. Dariy, arab, Sanskrit (qadimgi hind),grek va boshqa tillarni mukammal bilib olgan Beruniy bir qator asarlarni tarjima ham qildi. U arab tilida ko'pgina she'rlar bitta, hajvchilikda mahorat qozondi hamda har xil qissalar va aeab shoirlarining devorlariga sharxlar yozib "Muxtor ul ash'or" ("Tanlangan she'rlar") to'plamini tuzadi.

Beruniy Muqanna haqidagi birinchi asaridan qiyin 27 yoshida yaratgan "O'tmish ajdodlardan qolgan yodgorliklar" asarida ko'p xalqlarning yil hisobi, kalendari , ilm-fani, urf-odati va boshqalar haqida juda qimmatli ma'lumot va faktlar beradi. Uning Hindiston tarixiga doir asari shu kunga qadar o'z qimmatini saqlab kelmoqda. Beruniy bu kitob saqlanib qolmagan. Beruniy "Astronomiya kaliti", "Mas'ud jadvali" asarlari bilan astronomiya fani taraqqiyotiga bebahohissa qo'shdi, yerning yumaloqligini, tortish quvvati, fasllarning o'zgarishi va boshqa masalalar yuzasidan chuqur ilmiy xulosalarga

keldi, yerning va boshqa planetalarining quyosh atrofida aylanishi tog'risidagi fikri aniqlandi, astrologiyani fosh qildi. O'rta asrlarning ilk davrida Sharqda amalga oshirilgan buyuk ilmiy kashfiyotlar haqida gapirar ekanmiz, zamonaviy matematika, triogonometriya va geografiya fanlari taraqqiyotiga beqiyos hissa qo'shgan Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy nomini birinchilar qatorida tilga olamiz. U o'nlik pozision hisoblash tizimini, nol belgisi va qutblar koordinatalarini birinchilardan bo'lib asoslab berdi va amaliyotga tatbiq etdi. Bu esa matematika va astranomiya fanlari rivojida keskin burilish yasadi. Al-Xorazmiy algebra faniga asos soldi, ilmiy ma'lumot va traktatlarni bayon etishning aniq qoidalarini ishlab chiqdi, u asrtanomiya, geografiya va iqlim nazaryasi bo'yicha ko'plab ilmiy asarlar muallifidir. Allomaning dunyo ilmfani rivojidagi xizmatlari umume'tirof etilgan bo'lib, Sharq olimlari orasida faqat uning nomi va asarlari "algoritm" va "algebra" kabi zamonaviy ilmiy atamalarda adabiylashtirildi.

Ahmad Farg'oniy tomonidan IX asrda yaratilgan "Astronomiya asoslari" fundamental asarida olamning tuzilishi, Yerning o'lchovi haqida dastlabki ma'lumotlar, sayyoramizning sharsimon ko'rinishiga ega ekan xususidagi dalillar mavjud bo'lib mazkur kitob XVII asrga qadar Yevropa universitetlari asranomiya bo'yicha asosiy darslik sifatida o'qitib kelingan hamda Buyuk geografik kashfiyotlar davrida Klum, Megellian va boshqa sayohatchilarning kashfiyotlari uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qilgan. Ahmad Farg'oniyning amaliy yutuqlaridan biri uning o'rta asrlardagi asosiy astranomik asbob-usturlab nazaryasini ishlab chiqqani va shuningdek, Nil daryosidan "nilomer" degan, ko'p asrlar davomida suv sathini o'lchaydigan asosiy vosita sifatida xizmat qilib kelgan mashhur inshootni yaratgani bo'ldi. Yevropada Al-Faraganus nomi bila mashhur bo'lgan bu allomaning ilm-fan rivojidagi nufuzi shu qadar yuksak ediki, uning ismi sharafi yer kurrasidagina emas, balki samoda ham shuhrat topdi. O'n oltinchi asarda Oydagi kraterlardan biriga uning nomi berilgani bu fikrni isbotlaydi.

YUNESKO qaroriga muvofiq 1998 yilda Ahmad Farg'oniyning tavalludining 1200 yilligiga xalqaro miqiyosida nishonlandi. Bu buyuk ajdodlarimizning jahon sivilizasiyasi rivojiga qo'shgan ulkan hissasi, xalqimiz ilmiy salohiyatini yana bir e'tirofi bo'ldi. Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan Quva va Farrg'ona shaharlarida mutafakkir haykallari bunyod etildi. Garg'ona davlat universitetiga Ahmad Farg'oniy nomi berildi.

O'rta asrlarda sharq ilm fani rivojida Xorazm Ma'mun akademiyasi alohida o'rin tutgan. Ulkan kutubxona, madrasa, tarjimon va xattotlar maktabi kabi tuzilmalarga ega bo'lgan bu dargohda yuzdan ortiq allomalar, istedodli talabalar ilmiy izlanishlar olib brogan. Abu Nasr ibn Iroq, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Xo'jandiy, Ahmad ibn Muhammad Xorazmiy va Ahmad ibn Hamid haysaburiy kabi qomusiy olimlarning umumbashariy tafakkur rivojiga qo'shgan hissasi beqiyosdir.

Ibn Sino nomi dunyo fani va madaniyati tarixiga zarhal harflar bilan bitilgan. Doimo yashil bo'lib turuvchi tropik o'simlik "Avisenniya" deb atalgan. Ko'plab mamlakatlarda ko'chalar nomi qo'yilgan, alloma shaafiga medal va mukofotlar ta'sis etilgan. Ibn Sinoning "Tib qonunlari" asari necha asrlar davomida Yevropaning eng nufuzli oil yurtlarda asosiy tibbiyot darsliklardan biri sifatida o'qitib kelingani, dunyo miqiyosida "Meditrina", "Sog'lom turmush tarsi" degan tushunchalarni fundamental asosi bo'lib xizmat qilgani, albatta, chuqur hayotiy va ilmiy zaminga ega. Benazir allomalarning butun ilmiy faoliyati dunyo taraqqiyotini insonparvarlik ruhida, ya'ni ma'naviy negizda rivojlantirishga ulkan ta'sir o'tkazadi deb aytishmumkin. Darslikda keltirilga rivoyat orqali ham ularga munosib voris bo'lishga da'vat etiladi:

Nizomi Aruzi Samarqandiyning "**Sulton Mahmud va Beruniy**" nomli rvoyatida esa ulug' olim Abu Rayhon Beruniyning aql donoligi, zakiyligi va tadbirdorligi aks ettirilgan:

Bir kuni Sulton Mahmud G'aznada Ming chinor bog'idagi qasrning boloxonasida vazirlar, olimlar, shoirlar bilan o'tirib birdan Abu Rayhon Beruniyni imtihon qilmoqchi bo'libdi.

Abu Rayhon Beruniyda so’rabdi. Ayt-chi, munajjim, -men bu boloxonada to’rt eshigining qaysi biri orqali tashqariga chiqishim mumkin ? Fikringni qog’ozga yozib, bu yerdagilarga hatto o’zimga ham ko’rsatmay, men o’tirga ko’rpachaning qatiga qistirib qo’y!

Abu Rayhon usturbolni qo’liga olib, bo’r va taxtacha keltirishini buyiradi. So’ng oftobning balandligini o’lchaydi, jadval tuzib bir parcha qog’ozga allaninalarni yozib, to’rt buklab sulton aytgan joyga yashiradi. Sulton qog’ozga tegmasdan , ustalarni chaqirib, boloxonaning kunchiqar tarafidan devordan eshik ochishlarini buyiradi. Song osha eshikdan tashqariga chiqib, qaytib kirib ko’rpachani qatidan qog’ozni olib o’qidi. Unda “To’rt eshikning bironasidan ham tashqariga chiqmaydilar, balki kunchiqar tarafagini devordan yangi eshik ochtirib, o’shandan chiqadilar” degan so’zlar yozilgan ekan. Sultonning jahli chiqib, gulomiga “Abu Rayhonni qasr tomiga olib chiqib, yerga uloqtiringlar!” –deb amr qilidi. Buyruq bajarilibdi. Lekin u shu voqeadan sal ilgari sultonning ko’rsatmasi bilan tortib qo’yilgan soyabon ustiga tushdi. Shuning uchun ham biron yeri lat yemadi. Sultonning amri bilan uni yana boloxonaga olib chiqibtilar. Sulton unga mug’onbirona boqib dedi:

-Ey, Abu Rayhon! Buni ham oldindan bilganmiding?

-Ha, bilgan edim, Sultonim, -deb javob qildi. Abu Rayhon.

-Bu ni nima bilan isbotlaysan? –Sulton unga o’qraib tikidi.

Abu Rayhon g’ulomini chaqirtirdi. U xojaning daftarini keltirib berdi. Olim uning orasidan bir varaqini yertib olib, sultonga tutdi. Sulton qog’ozni o’qib ko’rib hayron bo’lib, boshini quyi solib sukutga keldi. O’sha varaqda: “Men falon kuni, falon joyga balandlikdan yerga uloqtirib yuboradilar. Lekin biron joyim lat yemay, sog’u salomat qolaman”, degan gaplar yozilgan ekan.

Bu hikoyadan o’z taqdirini bashorat qila olishini faqat Abu Rayhondek zukko, bilimdon odamlargina bilishi mumkin.

YUNESKO shafelida Xorazm Mamun akademiyasining 100 yilligiga nishonlangani, uning faoliyati qayta tashkil etilgani mamlakatimizda ajdodlar xotirasiga, ilm-fan rivojiga qaratilayotgan e’tiborning yorqin namunasidir.

Hozir bu qadimiy va navqiron ilm maskanida Xorazm tarixi uning o'ziga xos madaniyati, ekologiyasi, yer va suv resurslarini o'rganish bo'yicha ilmiy izlanishlar dabom ettirilmoqda.

Mirzo Ulug'bek yurtimizning bir qator shaharlarida madrasalar qurdirgan, Samarqandda o'ziga xos ilmiy muxit, xozirgi tilde aytganda, akademiya tashkil etgan. U yerda 200 dan ortiq olim faoliyat yuritgan. Buyuk Amir Temurning nabirasi, Benazir alloma Mirzo Ulug'bekning o'rta asrlar sharoitida nomoyon etgan ilmiy jasorati bugungi kun olimlarini ham hayratga solmasdan qo'ymaydi. Taqdir bu ulug' zotning zimmasiga behad ulkan va mashaqqatli vazifalar yukladi. Buyuk sarkarda Amir Temur bunyod etgan sifatlarning vorisi bo'lishdek o'ta ma'suliyatli vazifa aynan unga nasib rtadi. Mirzo Ulug'bek qarib qirq yil mobaynida Movarounnahr diyorning donishmand hukmdori sifatida xalqning azaliy orzusi-tinchlik, totuvlik, ilm-fan va madaniyatni taraqqiy toptirish yo'lida shijoat va matonat ko'rsatadi. Bu benazir alloma o'zida minglab yulduzlarning harakatini jamlagan mukammal astronomik jadvalni yaratdi. Ulug'bekning hayoti va ilmiy faoliyati xalqimiz ma'naviyatining poydevoriga qo'yilgan tamal toshlardan biri bo'lib, yurtboshimiz bundan necha zamonlar oldin fundamental fanlarni rivojlantirishga qanchalik katta ahamiyat berilganini ko'rsatadi.

Falaqiyot ilmining nazriy va amaliy masalari to'la qamrab olingan Ulug'bekning "Ziji" o'rta asrlardayoq Osiyo va yevropa mamlakatlarida keng tarqalgan. Yevropalik astronom olimlar uni lotin, fransus, ingлиз tillariga tarjima qilgan, sharhlar bitgan.

"Zoji Ulug'bek", "Ziji jadidi Ko'ragoniy" nomlari bilan shuhrat qozongan asarda 1018 yulduzning o'rni va holati aniqlab berilgan. Yulduzlarning balandligi va ular orasidagi masofa, quyosh va oyning xarakati, ularning tutilish vaqtлari bayon qilingan. Bu xisob- kioblar zamonaviy texnologiyalar orqali aniqlangan kuzatuv natijalaridan deyarli farq qilmaydi. Masalan, Ulug'bek hisobi bo'yicha bir yil 365 kun 6 soat 10 daqiqa 8 soniyani tashkil etadi. Bugungi kunda bir yil 365 kun 6 soat 9 daqiqa 6 soniyaga teng. Istiqlol

yillarida Mirzo Ulug’bekning hayoti va faoliyatini o’rganish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Davlatimiz rahbari 1994 yil mamlakatimizda Ulug’bek yili, deb e’lon qilindi. Osha yili Mirzo Ulug’bek tavalludining 600 yilligi xalqaro miqiyosda keng nishonlandi. Parij shahridagi YUNESKO qarorgohiga buyuk allomaning ilmiy merosi va uning ahamiyatiga bag’isghlangan anjuman o’tkazildi.

Mirzo Ulug’bek siymosi xalqimiz hayotining ajralmas qismiga aylanib qolgan. Yurtboshimiz Ulug’bek nomi berilgan tuman, ma’naviyat maskanlari, mahallalar, ko’chalar ko’p. Ota-onalar ezgu niyatlar bilan farzandlariga Ulug’bekning muborak ismini qo’yishadi. Bularning barchasi xalqimizning buyuk allomaga cheksiz hurmatidan darak beradi.

Butun dunyoga buyuk ajdodlarimizning so’nmas dahosiga hurmat-ehtirom, ularning boy ilmiy merosini o’rganishga qiziqish hamisha yuqori bo’lgan. Buning tasdig’ini turli mamlakatlarda ularning hayoti va faoliyati haqida ilmiy va badiiy asarlar yaratilgani ulug’ ajdodlarimiz xotirasiga yodgorlik barpo etilganida ham ko’rish mumkin. Belgiyada Ibn Sinoga, Litvada Mirzo Ulug’bekka, Maskva, Toki ova Boku shaharlarida Alisher Navoiy bobomizga Misr poytaxti Qohira shahrida esa Ahmad Farg’oni yotirishga o’rnatilgan muhtasham haykallar xalqimiz tarixiga chuqur hurmat ifodasidir. Mamlakatimizning iqtisoqiy, ijtimoiy, siyosiy va ma’naviy taraqqiyotini yosh avlod hayotisiz, ularni har tamonlama barkamol shakllangan shaxs sifatida tarbiyalamasdan tasavvur etib bo’lmaydi. Albatta, ularni komil inson sifatida ulg’ayishi bugundanoq boshlashimiz lozim. Binobarin, muhtaram Yurtboshimiz ta’kidlaganidek: “Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro’-e’tibori, avvalombor, farzandlarimizning unib – o’sib, ulg’ayib, qanday inson bo’lib, xayotga kirib borishiga bog’liqdir. Biz bunday haqiqatni hech qachon unutmasligimiz kerak” ! Shunday ekan yoshlarni o’zbek degan millatining buyuk xalq farzandi ekanligini erta yoshlikdan anglashimiz, uning ong va shuuriga sindirilmog’i lozim. Ana shundagina u,

yoshlikan buyuk xalqimiz urf-odatlari marosimlari, an'ana va qadriyatlarimizga chuqur ehtirom va e'tiqod ruhida shakllanadi, ulug' ajdodlarimiz, ulug' bobolarimiz g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalanadi.

Ana shunday g'oya, qarash ruhida tarbiyalash esa pedagoglar oldida juda cheksiz ma'sulyat va pedagogik tajriba hamda izlanishni talab etadi.

Bu maqsadni amalga oshirish ajdodlarimiz ilmi, kurash va jasorati hayoti bilan yoshlarni tanishtirish, vatanni sevish, ona-yurtni ardoqlash unga munosib avlod, yetuk farzand bo'lib, yashash-uzluksiz ta'limning asosiy bo'g'ini bo'lgan boshlang'ich ta'limda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, 4-sinf "O'qish kitobi" darslarida bu sohada ancha mavzular matni kiriylgan bo'lib, ulug' zotlar To'maris, buyuk shoirlar Najmuddin Kubro, Alisher Navoiy, Z.M.Bobur, qomusiy olimlar Abu Rayxon Beruniy va zamondosh shoirlar Usmon Nosir haqida hayotiy voqealar, rivoyat va afsonalar matni keltirilgan. Bu sinfda o'rganiladiganmatnlar quyi sinflarda murakkabroq bo'lib, eng avvalo, o'quvchining o'zi bu haqda atroflicha tasavvur va tafakkurga ega bo'lumog'i lozim. Zero, birgina ulug' xalqimizning jasoratli qahramoni ayom To'maris haqida ma'lumotga ega bo'lish uchun buyuk tarixchi pedagogning "Tarix" kitobi sahifalarini o'qib ko'rish lozim. To'g'ri, bu istedodli yozuvchimiz Mirkarim Osimning "To'maris" afsonasi bor. Olimlarning aniqlashicha, bu afsona emas, balki haqiqat bo'lib, 529-yilda Eron hukmdori kurashining qadimiylar turonliklar yurtiga massagetlar qabilasiga bostirib kirishi va himoyasida qabila boshlig'i To'maris (ayol) ning jasorati tasvir etilgan. 4-sinf "O'qish kitobi"da keltirilgan yozuvchi Hamdam Sodiqovning "To'maris" hikoyasi asosiy g'oya – To'marisning yovlarga qarshi jasorati tasvirlangan bo'lsa-da, unda, voqealar tavsloti-o'zbek xalqiga xos bo'lgan xususiyatlar-boy umrini baxsh etuvchi ayol ekanligi va boshqa ijodiy fazilatlari ham bir hikoyada jamlay olgan. Bunday voqealarni obrazli ifodalashni darslikda keltirilgan boshqa ajdodlarimiz haqidagi asarlarda uchratamiz.

Butun dunyoga buyuk ajdodlarimizning so'nmas dahosiga hurmat-ehtirom, ularning boy ilmiy merosini o'rganishga qiziqish hamisha yuqori bo'lgan. Buning tasdig'ini turli mamlakatlarda ularning hayoti va faoliyati haqida ilmiy va badiiy asarlar yaratilgani ulug' ajdodlarimiz xotirasiga yodgorlik barpo etilganida ham ko'rish mumkin. Belgiyada Ibn Sinoga, Litvada Mirzo Ulug'bekka, Maskva,Toki ova Boku shaharlarida Alisher Navoiy bobomizga Misr poytaxti Qohira shahrida esa Ahmad Farg'oniy xotirasiga o'rnatilgan muhtasham haykallar xalqimiz tarixiga chuqur hurmat ifodasidir. Tarixda vatan uchun jon fido qilgan buyuk zotlarning muborak nomlari hamisha ulug'lanib keladi.

Abu Ali ibn Sino. U o'zining ilmi,donishmandligi bilan mashhurdir. U haqdagi matn fikrimizni asoslaydi.

Ibn Sino dunyoga mashhur hakim va olimdir. Asli ismlari Husayn bo'lgan. Yoshligidan ilmga, tabobatga qiziqqan. Bobomiz o'z kitoblari bilan dunyo tibbiyat ilmiga asos solgan.

Abu Ali ibn Sino davolayotgan kasallariga shunday degan: "Biz uch tarafimizmen va kasallik. Agar sen men tarafga o'tib olsang, u yengiladi. Agar u tomonga o'tib olsang, ikkalangni yengishim qiyin".(28-bet).

Ikkinci bobning 9-mavzusi "Buyuk munajjim" deb nomlangan. Munajjim-yulduzlar o'rnini aniqlovchi, ularning xususiyatini o'rganuvchi shaxsdir.Anan shunday ulug' vatandoshimiz Mirzo Ulug'bek bobomiz hisoblanadi. Quyidagi mavzu buyuk olim va munajjim haqidagi o'quvchilar bilimini oshiradi:

Demak, insonlik tarbiyasida har bir shaxs o'z ajdodlarining, otabobolarining yashash tarzi tabiat va jamiyat haqidagi qarashlari va bizga qoldirgan ibratomus fikrlari hamda hayotiy tajribalaridan unumli foydalanish lozim . Bu esa kitob o'qish, ilmni anglash va ularning dono fikrlari va hayotiy tajribalarini tasavvur va tafakkur orqali anglashiladi. Zero, biz o'rgangan rivoyatlar va ulug' donishmand dono bobolarimiz timsolida ona vatanni muqqadas bilish uni kelgusi avlodga yanada obod va go'zal qilib yetkazish ulug' ajdodlarimizning bizga qoldirgan moddiy va ma'naviy

boyliklarini qadrlash ona xalqimizning yosh avlid tarbiyasidagi o'lmas ma'naviyatini o'rganish bizning yashash tarzimizni ifoda etadi.

**II.2.Darslikdagi To'maris, Najmiddin Kubro, Alisher Navoiy,
Z.M.Bobur, Abu Rayxon Beruniy Usmon Nosir siymolarini o'rganish
orqali o'quvchilarda yuksak insoniy fazilatlarni shakllantirish**

O'zbek xalqining buyuk siymolaridan biri-Najmiddin Kubrodir.Uning tarixdagi yuksak xizmatlaridan biri shundaki,mutasavvuv olamida kubraviya tariqatining asoschisi sanaladi. Kubro o'z davrida aql-zakovati,bilimi va zukkoligi bilan Xorazm xalqi orasida juda katta obro' va nufuzga ega bo'ladi.Mo'g'il bosqinchilari bu yurtga bostirib kirganda,eng avvalo, shoirdan yurni tark etishni,unga mislsiz imtiyoz berilishini aytadilar.Biroq shoir ularga bu elni tashlab ketmasligini,shu yurt uchun jon taslim etishga ham tayyor ekanligini bildiradi.Bu gapni eshitgan dushmanlar Xorazm tuprog'iga bostirib kiradilar.Shoir jangda qahramonlarcha jon beradi.Biroq hech kim, hatto halok

bo'lgan shoir qo'lidan batan bayrog'ini tortib ola olmaydi. Uning dushmanga nisbatan nafratdan tugilgan panjalari bayroqni dushmanlarga berishni istamasdi. Ana shu tarixiy haqiqat darslikdagi "Najmuddin Kubro" hikoyasida badiiy ifodasini topgan:

Qadim zamonda, Amudaryo tomonda bir yurt bo'lgan ekan. Tabiat so'lim, eli halim, gul-u bo'ston ekan. Tuprog'i hosildor ekan. Bu o'lkaning donolari ham ko'p bo'lgan. Shayx Najmuddin Kubro donolarning donosi ekan. Xalqi biron ish boshlasa, avvalo, u kishining maslahatini olarkan. Shuning uchun u o'lkada urush ham bo'lmas ekan. Yurtning nomi Xorazm bo'lgan.

Bir kuni mo'g'ul degan bosqinchilar Xorazmga yurish qilibdi.

Ularning maqsadi uylariga o't qo'yib, qo'y-qo'zilarini haydab ketib shaharni o'rab olish ekan. Xorazm xalqining dushmani qal'ani yorib kirish yo''arini izlarkan. Ayg'oqchilardan biri mo'g'ullar sardoriga:

-On hazrat, bu yurtning donolari ko'p. Donolarning donosi shayx Najmuddin Kubro ekan. Bu jangda ul hazratning ko'ngillari ozor cheksa, zinhor g'alabamiz munavvariga yetmasmiz.

-Farmon bering, shayx biz tarafga o'tsinlar. So'ng jang boshlaymiz.

-Maktub yuboring! Shayx hazratlari biz tomonga o'tsinlar! Shayx xatni barcha muridlar oldiga ovoz chiqarib o'qibdilar:

Xatda shayx hazratlariga bo'lgan hurmati haqqi, oilangiz va o' sakkiz kishi bilan biz tarafga o'tishi, osuda, farog'atda umr ko'rishi yozilgan edi.

Najmuddin Kubro choparga mening yaqinlarim o'n sakkiz kishidan ko'pigini yetkazing,- deydi. Ertasi kuni chopar yana xat keltiribdi: "Hazrat mayli, yuz kishi birla o'ting!" Shayx debdilar:

-Biz yuz kishidan ham ko'pdur. Uchunchi kuni chopar yana maktub bilan kelib, "Mayli ming kishi birla o'ting",-deyilibti xatda. Hazrat shunday debdilar:

-Mening yaqinlarim ming kishidan ham ko'p erur. Butun xalq mening yaqinlarimdur. To'rtinchi kuni tong otmasdan, dushman qal'a ichiga bostirib kiribdi. Urush qonli jangga o'tibti, kimning qo'lida tayoq, kimning qo'lida

o'roq, dushmandga hamla qilishibdi. Shayx Najmiddin Kubro ham qonli janga kirishibtilar. Dastlab bayroqqa tashlanibdilar. Zero, bayroqning egilgani-raqibning yengilgani. Shayx dushmandning bayrog'ini pastga tortib turganlaridabir bosqinchi shayxning o'ng qo'llariga qilich solibti. Qora qonga botsada yov batrog'ini esa hamon changallab, pastga tortar ekan. Yov shayxning qo'llarida g'ijimlanib turgan bayroqni sug'urib ololmabdi. Dushman yengilibdi.

Shayx Najmiddin Kubro esa Vatan uchun bo'lган jangda shahid bo'libdilar.

Najmiddin Kubro Xorazm xalqining donishmand, mutasavvuf olimidir. U Kubraviya tariqatining asoschisi. Najmiddin Kubroning mislsiz qahramonligi shundan iboratki, u mo'g'ul bosqinchiligiga qarshi kurash olib boradi. Maydonda o'zi jang qiladi. Lekin xorazm qo'shini mag'lubga uchrasa ham maydonni tark etmaydi. O'layotgana vatan bayrog'ini o'z qo'llari bilan qattiq qisib jon beradi. Hatto dushmanlar qahramonning o'lган jismidan ham bayroqni olayotganda, uni qo'llari orasida qattiq siqib turganligining guvohi bo'ladilar.

Najmiddin Kubro vatanparvar xalqining sevimli shoiri, yurti uchun jonini fido qilgan benazir qahramon.

Nizomi Aruzi Samarqandiyning "**Sulton Mahmud va Beruniy**" nomli rvoyatida esa ulug' olim Abu Rayhon Beruniyning aql donoligi, zakiyligi va tadbirkorligi aks ettirilgan:

Bir kuni Sulton Mahmud G'aznada Ming chinor bog'idagi qasrning boloxonasida vazirlar, olimlar, shoirlar bilan o'tirib birdan Abu Rayhon Beruniyni imtihon qilmoqchi bo'libdi.

Abu Rayhon Beruniydan so'rabi. Ayt-chi, munajjim, -men bu boloxonada to'rt eshigining qaysi biri orqali tashqariga chiqishim mumkin ? Fikringni qog'ozga yozib, bu yerdagilarga hatto o'zimga ham ko'rsatmay, men o'tirga ko'rpachaning qatiga qistirib qo'y!

Abu Rayhon usturbolni qo’liga olib, bo’r va taxtacha keltirishini buyiradi. So’ng oftobning balandligini o’lchaydi, jadval tuzib bir parcha qog’ozga allaninalarni yozib, to’rt buklab sulton aytgan joyga yashiradi. Sulton qog’ozga tegmasdan , ustalarni chaqirib, boloxonaning kunchiqar tarafidan devordan eshik ochishlarini buyiradi. Song osha eshikdan tashqariga chiqib, qaytib kirib ko’rpachani qatidan qog’ozni olib o’qidi. Unda “To’rt eshikning birontasidan ham tashqariga chiqmaydilar, balki kunchiqar tarafdagи devordan yangi eshik ochtirib, o’shandan chiqadilar” degan so’zlar yozilgan ekan. Sultonning jahli chiqib, gulomiga “Abu Rayhonni qasr tomiga olib chiqib, yerga uloqtiringlar!” –deb amr qildi. Buyruq bajarilibdi. Lekin u shu voqeadan sal ilgari sultonning ko’rsatmasi bilan tortib qo’yilgan soyabon ustiga tushdi. Shuning uchun ham biron yeri lat yemadi. Sultonning amri bilan uni yana boloxonaga olib chiqibtilar. Sulton unga mug’onbirona boqib dedi:

-Ey, Abu Rayhon! Buni ham oldindan bilganmiding?

-Ha, bilgan edim, Sultonim, -deb javob qildi. Abu Rayhon.

-Bu ni nima bilan isbotlaysan? –Sulton unga o’qraib tikidi.

Abu Rayhon g’ulomini chaqirtirdi. U xojaning daftarini keltirib berdi. Olim uning orasidan bir varaqini yertib olib, sultonga tutdi. Sulton qog’ozni o’qib ko’rib hayron bo’lib, boshini quyi solib sukutga keldi. O’sha varaqda: “Men falon kuni, falon joyga balandlikdan yerga uloqtirib yuboradilar. Lekin biron joyim lat yemay, sog’u salomat qolaman”, degan gaplar yozilgan ekan.

Bu hikoyadan o’z taqdirini bashorat qila olishini faqat Abu Rayhondek zukko, bilimdon odamlargina bilishi mumkin.

Quyidagi “Tanbeh” hikoyasida esa ulug’ shoir Alisher Navoiyning yurt, vatan go’zalligi uchun fidoyiligi aks ettirilgan. Hikoyada ifodalанишicha, mashhur Mirak naqqosh ayrim noo’rin vachlar bilan ulkan qurilish ishidan bosh tortadi. Shunda bu voqeani eshitib qolgan shoir navkarlar orqali podshoga buyruq tayyorlab, Mirak naqqoshga yetkazib berishini so’raydi. Farmonda ishni kechiktirganligi uchun naqqosh 5000 dinor jarima to’lashi

bildirilgan edi. Buni eshitgan naqqosh shoirdan uzr so'rab, ishni boshlashini bildirib yalinib so'raydi. Bu shoirning Mirak naqqoshga hazil tanbehi bo'lib hisoblanar edi:

Amir Alisher 1488-yil Hirotning Jome masjidini ta'mirlashga urinayotgan edi. Binoning yozuvlarini yozib berish Mirak naqqosh taxallusi bilan mashhur bo'lган Said Rasulloga topshirilgan edi. U beparvolik qilib, ishga kechikibroq qo'l urdi. Naqqoshlar unga qarab ish boshholmay turdilar.

Ishboshilar Mirak naqqoshga nasihat ham, do'q po'pisa ham qilib ko'rdilar. Lekin foydasi bo'lmadidi. Ahvolni ulug' amriga arz qildilar. Amir qiziq bir tadbir ishlatdi. O'sha paytda Mirak naqqosh Hirot atrofidagi Saidravon qishlog'ida dam olayotgan edi. Amir Alisher Jalolliddin munshiyni chaqirtirib buyurdi:

-Said Rahullo devoni oliyga besh ming dinor qaytarishi zarurligi haqida hujjat tayyorlang .

Maktub keltirilgach, amir Alisher Said Rahullo tanimaydigan ikki navkarni chqirtirib keltirdi. Hujjatni ularning qo'liga topshirib buyurdi:

-Saidravon qishlog'iga boring'ar, Mirak naqqoshni topib, qayd etilgan mablag'ni siyosat bilan talab qilinglar, o'zlarizingizni esa shahzoda Faridun Husayn mirzoning navkarlari deb tanishtiringgiz.

Navkarlar Saidravon qishlog'iga bordilar. Mirak naqqoshni topib, giribonidan oldilar va hujjatda ko'rsatilgan mablag'ni talab qildila. Said Ruhullo hayrat dengiziga cho'mdi, so'ng vaziyatni hisobga olib, yalinib-yolvorishga tushdi:

-Hoy birodarlar, meni masjidi jomega olib boringlar, agar hoziroq ishga tushmasam har narsa bo'lay.

Navkardalar uning arz-dodini qabul qildilar. Said Ruhulloni Hirotna olib bordilar. Amir Alisher masjid qurilishi tepasida ekan. Naqqosh uning oyoqlariga yiqilib zorlandi.

-Kambag'allik nihoyasiga yetgan shunday bir paytda besh ming dinorni bandaning zimmasiga yozibdilar. Bandags rahm qilib, shu qog'ozni qaytarib

olish chorasini ko'rsalar, abadul abad ota-bobomning rahmatiga musharraf bo'lur edingiz.

-Amir janoblari dedilar:

-Hujjatni qaytarish mushkul, shunday bo'lsa ham bir qadar urinib ko'rurmiz. Faqat shu shart bilingki, siz ham o'n besh kun ichida ushbu muborak manzilning tashvishlaridan ko'nglimizni tinchitib qo'ysangiz. Mirak naqqosh ulug' amirning shartini qabul qildi va mana bunday tilxat ham yozib berdi:

"Agar belgilangan muddatdan biror kun o'tkunday bo'lsa, bunda mablag' xususida o'zini uzrsiz javobgar hisoblaydi". Shundan keyin amir Alisher mulozimi Kamoliddin Husaynni chaqirib buyurdi:

-Mirak naqqoshni devonga olib boring, nima bo'lsa ham uning nomiga yoilgan hujjatning bekor qilinishiga ko'maklashing. Said Ruhullo xursand bo'ldi.

Alisher Navoiy xalqimizning sevimli shoiri. U o'zining asarlari bilan xalq orasida juda katta shuhrat qozondi. Shoir haqida she'rlar bitmagan, dostonlar yaratmagan adiblar juda kam topiladi.

Darslikda berilgan Tursunboy Adashboyevning "Navoiy bobomlar" she'rida ana shunday ulug' tuyg'u o'z ifodasini topgan:

Hirot tuprog'ida voyaga yetgan,

"Qush tili" yo'llarini munavvar etgan,

Yillar to'zonidan sog'-omon o'tgan.

Navoiy bobomlar

Buyuk bobomlar

"Xamsa"si ko'nagilni shamdek yoritgan,

Tilimizni ko'rka, boy etgan,

Mag'rib-u mashriq ham iftixor etgan

Alisher bobomlar

Qutlug'un qadamlar.

Alisher Navoiy umri davomida o'lmas asarlar yaratdi. U yaratgan badiiy obrazlar xalqimizning sevimli qahramonlariga aylandi:

Dostonlari chiqmagay yoddan,
 So’rang Majnun, Qaysdan, Farhoddan,
 Layli, Shirin qaddi shmhoddan,
 Navoiy bobomlar
 Buyuk odamlar.
 Mir Alisher otash zabondir,
 Umri boqiy osmon-omondir,
 G’azallari fidoiyi- jondir,
 Navoiy bobomlar
 Qutlug’ qadamlar.

Darslikda ulug’ o’zbek shoiri, jamoat arbobi va sarkarda Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodi haqida ham ayrim ma’lumotlar keltiriladi . Garchi shoir Hindistondek buyuk mamlakatning podshosi bo’lsa-da, o’z vataniga sadoqati va e’tiqodini ko’rsaddi. U Andijonni bir umr sog’inib yashadi. O’zining taqdiridan aziyat chekdi. O’zga yurtda podshoh bo’lgandan ko’ra, ona yurtida gado bo’lib yashashni afzal ko’rdi. Biroq achchiq taqdirning bu o’yinidan hech qachon voz kecha olmadi. U bir ruboiysida shunday deb yozgan edi:

Tole’ yo’qi jonimg’a balolig’ bo’ldi
 Har ishniki ayladim xatolig’ bo’ldi.
 O’z yerni qo’yib Hind sori yuzlandim, oh
 Yo rab, ne yuz qarolig’ bo’ldi.

Ana shu tuyg’u, ana shu dil o’rtar vatan sog’inchi “Hidi tilimi va mazasidan” hikoyasida badiiy ifodalangan:

Falakning gardishi bilan Mirzo Bobur Hindiston degan yurtga borib qolib, u yerning sultonni bo’ibti. Hindiston bog’-rog’I ko’p, meva chevaga boy yurt ekan. Bobur “mendan yodgorlik qolsin” deb Hindistonning ko’rkam joyiga bir bog’ barpo ettiribti. Dunyodagi eng katta bu bog’ga turli yurtlardan nihollar keltirib ektiribti. Xalq dunyoga dong’I ketgan bu bog’ga “Bog’i Boburiy” deb nom qo’ydi. Bog’dagi daraxtlar hosilga kirib, biram meva beribtiki, ularni

hech yerga sig'dirib bo'lmabti. "Bog'i Boburiy"ning chekkasi rezavor ekan. Unda piyoz, sabzi, bodring, tarvuz bitibdi. Ammo handalak bilan qovun bo'lmabdi.

Shoh bir yili qovun ektiribdi, bitmabdi, ikkinchi yil ektiribdi, bitmabdi, uchinchi yil ham ektiribdi, baribir qovun bitmabdi.

Qovun bitishga bitibti-yu birinchi yili gulidayoq hosilini tashlab yuboribdi, ikkinchi yil palagi "o'lib qolibdi", uchinchi yil pishib yetmay turib so'lib qolibdi. Boburshoh bo'lsa qovun topishini talab qilaveribdi.

-Bu yil qovun ekib pishirmasanglar, hammangizni jazolayman,-deya g'azablanibdi.

Bog'bon nima qilishni bilmay rosayam boshlari qolibti. Oxiri Boburshohga bildirmay, uzoq Farg'onadan qovun olib kelishga ahd qilishibdi. Boburshoh bir necha oyga ovga ketib, qaytib kelgach, bog'bondan qovun yo'qlatibdi.

Bog'bonlar Farg'onadan keltirilgan qovunni olib borishibdi. Boburshoh qovunni hidlab ko'rib:

-Qayerda bitgan?-deb so'rabdi.

-Bog'i Boburiy"da bitgan,-deb javob beribdi bog'bon.

-Yo'q, hidi boshqacha. Bunday hidli qovun bu yerlarda bitmaydi, faqat bir o'lkada yetishibdi, xolos. Sen meni aldayapsan-debdi Boburshoh.

-Aldagan bo'lsam, bilganingizni qiling, shohim. Bu qovun "Bog'I Boburiy"da bitgan,-debbi bog'bon so'zidan qaytmay. Boburshoh qovunni hidlay-hidlay bo'yiga mast bo'lib, uni tilimlamochi bo'libdi. Qovun pichoq tegar-tegmasdan tarsillab yorilib ketibdi. Boburshoh bog'bonga qarab:

-Yolg'on gapiribsan, qovunni qayerdan keltirganingni ochiq aytasan. Pichoq tegar-tegmay yorilib ketadigan qovun faqat men bilgan o'lkadagina bitadi. Sen mening savolimga to'g'ri javob bermading, qahrim qattiqligidan qo'rqmaysanmi,- debdi.

Boburshohni aldab bo'lmasligini bilgan bog'bon rostini aytishga majbur bo'libdi.

-Farg'ona viloyatidan keltirdik,-debbi ko'ziga jiqla yosh olib.

Bog'bonning gapidan Boburshohning ko'ngli buzilib, yig'lab yuborishga ozgina qolibdi.

Mamlakatimizning iqtisoqiy, ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy taraqqiyotini yosh avlod hayotisiz, ularni har tamonlama barkamol shakllangan shaxs sifatida tarbiyalamasdan tasavvur etib bo'lmaydi. Albatta, ularni komil inson sifatida ulg'ayishi bugundanoq boshlashimiz lozim.Binobarin, muhtaram Yurtboshimiz ta'kidlaganidek: "Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro'-e'tibori, avvalombor, farzandlarimizning unib – o'sib, ulg'ayib, qanday inson bo'lib, xayotga kirib borishiga bog'liqidir.Biz bunday haqiqatni hech qachon unutmasligimiz kerak" ! Shunday ekan yoshlarni o'zbek degan millatining buyuk xalq farzandi ekanligini erta yoshlikdan anglashimiz, uning ong va shuuriga sindirilmog'i lozim. Ana shundagina u, yoshlikan buyuk xalqimiz urf-odatlari marosimlari, an'ana va qadriyatlarimizga chuqur ehtirom va e'tiqod ruhida shakllanadi, ulug' ajdodlarimiz, ulug' bobolarimiz g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalanadi.

Ana shunday g'oya, qarash ruhida tarbiyalash esa pedagoglar oldida juda cheksiz ma'suliyat va pedagogik tajriba hamda izlanishni talab etadi.

Bu maqsadni amalga oshirish ajdodlarimiz ilmi, kurash va jasorati hayoti bilan yoshlarni tanishtirish, vatanni sevish, ona-yurtni ardoqlash unga munosib avlod, yetuk farzand bo'lib, yashash-uzluksiz ta'limning asosiy bo'g'ini bo'lgan boshlang'ich ta'limda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, 4-sinf "O'qish kitobi" darslarida bu sohada ancha mavzular matni kiriyilgan bo'lib, ulug' zotlar To'maris, buyuk shoirlar Najmiddin Kubro, Alisher Navoiy, Z.M.Bobur, qomusiy olimlar Abu Rayxon Beruniy va zamondosh shoirlar Usmon Nosir haqida hayotiy voqealar, rivoyat va afsonalar matni keltirilgan. Bu sinfda o'rganiladiganmatnlar quyi sinflarda murakkabroq bo'lib, eng avvalo, o'quvchining o'zi bu haqda atroflicha tasavvur va tafakkurga ega bo'lmog'i lozim. Zero, birgina ulug' xalqimizning jasoratli qahramoni ayom To'maris haqida ma'lumotga ega bo'lish uchun

buyuk tarixchi pedagogning “Tarix” kitobi sahifalarini o’qib ko’rish lozim. To’g’ri, bu istedodli yozuvchimiz Mirkarim Osimning “To’maris” afsonasi bor. Olimlarning aniqlashicha, bu afsona emas, balki haqiqat bo’lib, 529-yilda Eron hukmdori kurashining qadimiylar turonliklar yurtiga massagetlar qabilasiga bostirib kirishi va himoyasida qabila boshlig’I To’maris (ayol) ning jasorati tasvir etilgan. 4-sinf “O’qish kitobi”da keltirilgan yozuvchi Hamdam Sodiqovning “To’maris” hikoyasi asosiy g’oya –To’marisning yovlarga qarshi jasorati tasvirlangan bo’lsa-da, unda, voqealar tavsloti-o’zbek xalqiga xos bo’lgan xususiyatlar-boy umrini baxsh etuvchi ayol ekanligi va boshqa ijodiy fazilatlari ham bir hikoyada jamlay olgan. Bunday voqealarni obrazli ifodalashni darslikda keltirilgan boshqa ajdodlarimiz haqidagi asarlarda uchratamiz.

Ulug’ xalq farzandlaridan biri, qomusiy olim Abu Rayhon Beruniyidir . Beruniy o’zining butun umri davomida juda ko’p fanlar bo’yicha ijod qildi va 100dan ortiq asarlar yaratdi. Uning geofizika, tarix, geografiya, adabiyot va davlatchilik sohasidagi ilmiy asarlari hozirgi kunda ham qadr – qimmatini yoqotgani yo’q. Bugungi kunda ham olim merosi ijtimoiy hayot taraqiyotida munosib xizmat qilib kelmoqda.

Istiqlol yillarda Mirzo Ulug’bekning hayoti va faoliyatini o’rganish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Davlatimiz rahbari 1994 yil mamlakatimizda Ulug’bek yili, deb e’lon qilindi. Osha yili Mirzo Ulug’bek tavalludining 600 yilligi xalqaro miqiyosda keng nishonlandi.

Mirzo Ulug’bek siyoshi xalqimiz hayotining ajralmas qismiga aylanib qolgan. Yurtboshimiz Ulug’bek nomi berilgan tuman, ma’naviyat maskanlari, mahallalar, ko’chalar ko’p. Ota-onalar ezgu niyatlar bilan farzandlariga Ulug’bekning muborak ismini qo’yishadi. Bularning barchasi xalqimizning buyuk allomaga cheksiz hurmatidan darak beradi.

Butun dunyoga buyuk ajdodlarimizning so’nmas dahosiga hurmat-ehtirom, ularning boy ilmiy merosini o’rganishga qiziqish hamisha yuqori bo’lgan. Buning tasdig’ini turli mamlakatlarda ularning hayoti va faoliyati

haqida ilmiy va badiiy asarlar yaratilgani ulug' ajdodlarimiz xotirasiga yodgorlik barpo etilganida ham ko'rish mumkin. Belgiyada Ibn Sinoga, Litvada Mirzo Ulug'bekka, Maskva, Toki ova Boku shahlarida Alisher Navoiy bobomizga Misr poytaxti Qohira shahrida esa Ahmad Farg'oniy xotirasiga o'rnatilgan muhtasham haykallar xalqimiz tarixiga chuqur hurmat ifodasidir.

Buyuk mutafakkir, olim,musiqachi, rasom va davlat arbobi, o'zbek adabiy tilining asoschisi Bobur ta'biricha, "Tili Andijon shevasi bilan rost" bo'lgan shoir Nizomiddin Mir Alisher Navoiydir. Butun turk dunyosi "Navoiyning shamsul millat" – quyoshi deb ulug'laydi. Alisher "Amiri kabr" (ulug' amir), "Amir ul - muqarab"(podshoxga yaqin amir), "Muqarabiy shohiy"(shohning eng yaqin kishisi), umonlariga musharaf bo'lган.

Beruniy ensiklopedist olim, zo'r astranom, geolog, tarixchi, faylasuf, filolog va shoirdir. U astranomiya, geologiya, gidrostatika va geografiya sohasidagi rasionalistik fikrlari bilan Kopernink, Leonardo daVinch'i va boshqa olimlarning kashfiyotlarini ko'p jihatdan oldindan patqagan edi. U falsafa, tapix va boshqa gumanitar fanlar sohasida zamonasining ilmiy saviyasidan ancha yuqori ko'rila oldi. Beruniy 150ga yaqin asar yozdi. Dariy, arab, Sanskrit (qadimgi hind), grek va boshqa tillarni mukammal bilib olgan Beruniy bir qator asarlarni tarjima ham qildi. U arab tilida ko'pgina she'rlar bitta, hajvchilikda mahorat qozondi hamda har xil qissalar va aeab shoirlarining devorlariga sharxlar yozib "Muxtor ul ash'or" ("Tanlangan she'rlar") to'plamini tuzadi.

Beruniy Muqanna haqidagi birinchi asaridan qiyin 27 yoshida yaratgan "O'tmish ajdodlardan qolgan yodgorliklar" asarida ko'p xalqlarning yil hisobi, kalendari , ilm-fani, urf-odati va boshqalar haqida juda qimmatli ma'lumot va faktlar beradi. Uning Hindiston tarixiga doir asari shu kunga qadar o'z qimmatini saqlab kelmoqda. Beruniy bu kitob saqlanib qolmagan. Beruniy "Astronomiya kaliti", "Mas'ud jadvali" asarlari bilan astronomiya fani taraqqiyotiga bebahohissa qo'shdi, yerning yumaloqligini, tortish quvvati,

fasllarning o'zgarishi va boshqa masalalar yuzasidan chuqur ilmiy xulosalarga keldi, yerning va boshqa planetalarning quyosh atrofida aylanishi tog'risidagi fikri aniqlandi, astrologiyani fosh qildi.

Tarixda vatan uchun jon fido qilgan buyuk zotlarning muborak nomlari hamisha ulug'lanib keladi.

Abu Ali ibn Sino. U o'zining ilmi,donishmandligi bilan mashhurdir. U haqdagi matn fikrimizni asoslaydi.

Ibn Sino dunyoga mashhur hakim va olimdir. Asli ismlari Husayn bo'lган. Yoshligidan ilmga, tabobatga qiziqqan. Bobomiz o'z kitoblari bilan dunyo tibbiyat ilmiga asos solgan.

Abu Ali ibn Sino davolayotgan kasallariga shunday degan: "Biz uch tarafimizmen va kasallik. Agar sen men tarafga o'tib olsang, u yengiladi. Agar u tomonga o'tib olsang, ikkalangni yengishim qiyin".(28-bet).

Ikkinci bobning 9-mavzusi "Buyuk munajjim" deb nomlangan. Munajjim-yulduzlar o'rnini aniqlovchi, ularning xususiyatini o'rganuvchi shaxsdir.Ana shunday ulug' vatandoshimiz Mirzo Ulug'bek bobomiz hisoblanadi. Quyidagi mavzu buyuk olim va munajjim haqidagi o'quvchilar bilimini oshiradi:

Demak, insonlik tarbiyasida har bir shaxs o'z ajdodlarining, ota-bobolarining yashash tarzi tabiat va jamiyat haqidagi qarashlari va bizga qoldirgan ibratomus fikrlari hamda hayotiy tajribalaridan unumli foydalanish lozim . Bu esa kitob o'qish, ilmni anglash va ularning dono fikrlari va hayotiy tajribalarini tasavvur va tafakkur orqali anglashiladi. Zero, biz o'rgangan rivoyatlar va ulug' donishmand dono bobolarimiz timsolida ona vatanni muqqadas bilish uni kelgusi avlodga yanada obod va go'zal qilib yetkazish ulug' ajdodlarimizning bizga qoldirgan moddiy va ma'naviy boyliklarini qadrlash ona xalqimizning yosh avlid tarbiyasidagi o'lmas ma'naviyatini o'rganish bizning yashash tarzimizni ifoda etadi.

Ulug' sarkarda, buyuk davlat asoschisi Amir Temur haqida rivoyat keltirilganki, bu rivoyatda sarkarda jasorati,qalbi kengligi o'quvchilarga ibrat sifatida keltiriladi. Amur Temur mo'g'ul bosqinchilariga qarshi bir jangda

dushman nihoyatda ko‘pligini bilgach, ularni qanday bo‘lmasin yengish yo‘llarini o‘ylaydi va hamma askarlarning otalariga ikki bog‘lamdan shox-shabba bog‘lashni buyuradi. Bu usul bilan dushman ko‘ziga ko‘p otliq kelayotganday bo‘lib ko‘rinish, otlat chopganda shoxlar sudralganda, chiqqan tovushdan ularning tahlikaga tushishi ko‘zda tutilgan ekan. Shunday qilib, Amir Temur uncha ko‘p bo‘lмаган askarlari bilan juda ko‘pchilikni tashkil etgan yov askarlarini tormor qilganligi haqdagi voqeani qiziqib tingladik. Albatta, bu matn ma’naviy boylik-mehribonlik tuyg’usidek ezgulik fazilatini tarbiyalaydi:

Navbatdagi yurish oldidan Qorabog’cha chodir qurib turib qoldik. Harbiy mashqlar paytida ochiq havoda tunadik. Safar oldidan chodirga qaytib, ajib manzaraning guvohi bo‘ldim. Biz yo‘g‘imizda chodir tuynigidan ikki kabutar tushib, o‘rindiqqa in quribdi. Biri tuxum bosib yotaq edi. Bu beozor jonivorlarga xalal yetkazmaslik uchun chodirni o‘zga qildik. Safarga jo’nash oldidan to’rt navkarni qoldirdik.

Ularga tayin etdimkim:

-Qushlar tuxum ohib, polaponlari uchirma bo‘lguncha, su yerda bo‘lursiz. So’ngra chodirni yig’ib, ortimizdan yetib borursizlar.

(Amur Temur haqidagi rivoyatdan.) (100-bet)

Ulug’ o’zbek olimlaridan biri-Mirzo Ulug’bek Ko’rogoniydir. U Samarcandda 40 yil podsholik qilgan, ulug’ sarkarda Amur Temur nevarasidir. Mirzo Ulug’bek butun umri davomida adolatli shoh, ilmsevar inson va astronom olim sifatida butun dunyoga tanilgan. Uning ”Zichi Ko’rogoniy” mashhur asari bo‘lib, bu asarda bir ming o’n sakkizta yulduz o’rnini aniqlab berdi. Ular haqida ilmiy ma’lumotlarni aniq keltirdilar.

Zahriddin Muhammad Bobur adabiyotimizda yaratgan she’riyatida hasbi hollik alohida o’rin tutadi. U yaratgan she’rlarda vatan sog’inchi, ona yurtga muhabbat tuyg’usi birinchi darajalidir. Shuning uchun ham yuqoridagi hikoyada shoir hayotida yuz bergen voqeа asosiy detal sifatida muhim o’rin tutadi. Shoир Hindistonda bog’ yaratmoqchi bo’ladi. Tilimi tilni yoradigan

qovun etishtirishni niyat qiladi.Biroq ekkan qovun shirali bo'lmaydi.Buni anglagan dehqonlar qovunni Farg'onadan olib kelib, shoh dasturxoniga qo'yishadi.Bobur qovunni yeb uning shiradorligiga hayron qoladi va uning o'zining bog'idan emasligini darrov sezadi.Bog'bonlar esa "Bog'I Boburiy"dan deslar ham ishonmaydi. Oxiri majbur bo'kgan bog'bonkar qovunni olib kelgan manzilni aniq bildiradilar. O'z yurtining nomini eshitgan Bobur qovun karjlarini ko'ziga surtib yig'lab yuboradi. Bu esa shoirning ona vataniga, yurtiga va xalqiga nisbatan cheksiz sog'inchining belgisi edi. Vatanni sevish, ardoqlash va unga cheksiz muhabbat tuyg'ulari shoirning boshqa asarlarida ham juda katta o'rinni egallaydi. Shoir asarlarini o'qish esa bizda ana shu vatanparvarlik tuyg'ularini yanada boyitib boradi.

O'qituvchi ushbu asarni o'quvchilar bilan o'qiganda, eng avvalo, shoir hayoti va ijodi haqida gapirganda, uning ona vatanga muhabbat tuyg'usini ifodalash yuqoridagi hikoyaning asosiy g'oyasi ekanlgini chuqur his qilmog'i lozim. O'zbek xalqining sevimli shoirlardan biri Usmon Nosirdir.Usmon Nosir judda qisqa umr ko'rdi. U bor -yo'g'i 32 yil yashadi .Shoir shu qisqa davrida "Quyosh bilan suhbat", "Safarbar satrlar", "Yurak", "Mehrim" kabi she'riy to'plamlari, "Norbo'ta", "Naqshon", kabi daostonlari, "Atlas", "Zafar", "So'nggi kun", "Dushman" kabi dramatik asarlarni yaratdi. Shoir Pushkentning "Bog'cha saroy fontani", Lermovtonning "Iblis" va boshqa jahon shoirlarining o'zbek tiliga tarjima qilgan.U 1938-yil nohaq qamoqqa olinib, 1944-yil uzoq Sibr o'lkalariga surgun etilib, o'sha yerda vafot etadi. Biroq shoirning otashnafas ijodi xalqimiz qalbida hamon yashab kelmoqda.

Darslikda keltirilgan "Rivoyat" da shoirning ana shu achchiq hayoti tasvir etilgan:

Bir bor ekan, bir yo'q ekan qadim zamonlarda Farg'ona-yu Qo'qon degan tomonlarda Usmon Nosir degan mashhur shoir matabni bitirib: "Endi qaysi hunarning etagidan ushlasam? Qayerga boib o'qisam-u, qaysi sohani tanlasam?" deb kecha-yu kunduz o'ylab yurgan ekan.

Kunlarning birida u soy bo'yida xayol surib suvning jimir-jimir to'lqinlariga qarab o'tirgan ekan, shu payt osmondan tushibdimi yo suvdan chiqibdimi, uning yonida oppoq soqolli, uzun hassali bir nuroni kishi paydo bo'libdi.

-Nimani o'ylayapsan, o'g'lim? –so'rabdi u.

Usmon Nosir bir qarasa, tanish, bir qarasa, notanish odam. Ovozi ham goh tanish ovozga o'xshasa, goh notanish kishining ovozi. Balki meni bo'lmasa otamni, otamni bo'lmasa onamni tanuvchi kishi bo'lsa kerak, deb ochig'ini aytibdi:

-Maktabni tugatyapman, ammo qayerga borib o'qisam, kim bo'lsam ekan, deb o'ylanib turibman.

Shunda boyagi kishi so'rabdi:

-O'zing qaysi hunarni yaxshi ko'rasan? Qaysi muallimning saboqlari senga ko'proq ma'qul bo'lgan?

-Men hamma darslarga qiziqqanman. Hamma hunar menga yoqadi. Ammo hamma narsadan ko'ra ko'proq kitob o'qishni yaxshi ko'raman,-debdi Usmonjon.

Kitob o'qish-hunar emas. Kitob o'qish bilan tirikchilik o'tmaydi. Lekin shunisu ham borki, kitob o'qishni juda yaxshi ko'rgan odamlar borib, borib, o'zlari ham kitob yozganlar.

-Men ham kitob yozsam deymab,-debdi Usmonjon.

-Niyating chakki emas. Lekin dunyoda kim ko'p-shoir ko'p, yozuvchi ko'p. Ammo ularning hammasidan ham Navoiy chiqmagan. Agar sen yozgan kitoblarni o'qib, odamlarning ko'zi o'tkir, qo'li chaqqon, yo'li ravon bo'lishiga ishonsang, niyatting ushalsin.

-Odamlar kitobni ko'zlari o'tkir bo'lishi uchun emas, huzr-halovat toppish, dardlariga malham olish uchun o'qimaydilarmi, otaxon?-so'rabdi Usmonjon.- Men shunday kitoblar yozayki, uni o'qib, odamlarning bir-birlariga bo'lган meri oshsin, xayollarida faqat bir-birlariga yaxshillik qilish istagi bo'lsin.

-Aytganing kelsin, o'g'lim. Shunday kitoblar kerak. Faqat shuni yodda tutki, sen yashayotgan dunyo-shafqatsiz dunyo. Bilasanmi, o'g'lim, har bir kishining

orqasidan uning soyasi yuradi. Bu soya emas. Bir kun bo'lmasa, bir kun u shu odamning boshini yeydi. Ba'zan bitta soya ikkita, hatto uchta va undan ham ko'p bo'ladi.

Ular seni jar yoqasiga olib borib, tubsiz chuqirlikka otib yubormasin desang, hamisha oftobga qarab yur!

Shunday qilib, marhum otaning ruhi Usmon Nosirning shorlik hunarini tanlab olishga rizolik va fotiha bergen ekan.

Usmon Nosir o'zbek xalqining sevimli va ardoqli shoiriga aylandi. Uning asarlari mangulikka aylandi. Biroq sobiq sho'ro tuzumi siyosati uning hayotiga rahna soldi. Shunday ulug' shoir "xalq dushmani" sifatida uzoq sibr o'lkalariga surgun qilindi. Keyinchalik shoir nomi xalq orasida tiklanib, uning o'lmas asarlari el ardog'iga aylandi. Adabiyotda esa uning nomi o'zbekning sevimli farzandi sifatida ardoqlanib kelmoqda.

Ikkinchi bob fasllari mavzusi yuzasidan quyidagi to'xtam va xulosalarga kelindi:

1.4-sinf "O'qish kitobi" darsligidagi "Ajdodlarimiz – faxrimiz "bo'limi asosida o'quvchilarda yuksak insoniy fazilatlarni shakllantirishning metodik va zamonaviy texnologik usullari belgilandi.

2.Bo'limdagi qomusiy olim Abu Rayxon Beruniy hayotiga bag'ishlangan parcha orqali o'quvchilarga olimning donoligi, har qanday hayot muamolarini yecha olishdek tadbirkorligi va uning qarama – qarshiligidagi kurashuvchanlik qudrati nihoyatda ustuvorligi bayon etildi.

3.Ulug' mutasavvuf olim Najmiddin Kubroning vatanparvarlik tuyg'usining cheksizligi, mo'g'il bosqinchlarga qarshi ko'rsatgan afsonaviy jasorati orqali o'quvchilarda ona yurtga cheksiz muhabbat tuyg'usi uyg'otildi.

4.Xalqimizning buyuk shoiri Alisher Navoiy nafaqat o'zining ulkan adabiy merosi, balki insoniy fazilatlari, insonparvarligi, vatanparvarligi va aql-zakosi bilan ham yuksak shaxs sanaladi. Darslikdagi birgina "Tanbeh" parchasi tahlili bilan shoirning yurtga, insonlarga mehr-muhabbat tuyg'usi nihoyatda yuksakligi talqin etildi.

5.Ulug' shoir, buyuk sarkarda va jamoat arbobi Zahiriddin Muhammad Boburning ona yurtga sog'inchi, garchi podshoh bo'lsa-da, o'z vataniga hatto gado sifatida qaytishi uning buyuk orzusiga aylanadi.Biroq bu orzu armonga aylanadi. Darslikdagi parcha orqali shoirning ana shu tuyg'usi atroflicha yoritildi.

Xulosa qilib aytganda, bu ona yurt tuprog'Ii necha-necha ajdodlarimiz, xalqimizning asl farzandlarining yovuzlikka, adolatsizlikka va bosqinchilikka qarshi kurashlari tufayligina ozod va obod bo'lib qoldi. Biz ana shu tarixni chuqur his etib, anglab olib o'quvchilar ongiga singdirib, har on ularning dunyoqarashi va tafakkurini boyitib borishimiz lozim.

XULOSA

Har bir xalq o'zining tafakkur dunyosi aqlu zakosi asl farzandlari bilan tarix sayifasida munosib o'rinni egallaydi. O'zbek xalqi ham ana shunday ma'naviy dunyosi bilan jahon sivilizatsiyasi rivojiga munosib hissa qo'shib kelmoqda. Ayniqsa, Samarqandda o'tkazilgan "O'rta asrlar Sharq alomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilazatsiya rivojidagi roli va ahamiyati" mavzusida o'tkazilgan xalqaro konferinsiyada Prizendtimiz I.A. Karimov chiqish nutqlarida shunday degan edilar:" Men yoshlarimizga murojat qilar ekanman, ularga doimo :"Biz buyuk ajdodlarimiz bilan faxrlanishimiz, g'ururlanishimiz kerak, ayni vaqtida faqat g'ururlanishning o'zi emas kelinglar o'zimiz ular kabi bebaxo merosga o'z hissamizni qo'shaylik" – deb ta'kidlayman". (O'zAS, 2012-yil 16-may, 20-son, 2-bet).

Butun pedagogik faoliyatimiz yosh avlodga faqat bilim berish emas, balki ularning tafakkur dunyosini boyitishdan iborat. Bu yo'lida ulug' ajdodlarimizning bizga qoldirgan boy tarixiy merosi, ma'naviy dunyosi dasturul amal bo'lib xizmat qiladi.

Bitiruv malakaviy ishimiz mavzusini chuqur o'rganar ekanmiz, yuqoridagi g'oya asosida quyidagi xulosa va to'xtamlarga kelindi:

1. O'zbek xalqi azal –azaldan o'zining ilimliy, zakiy va jahonga mashhur farzandlari bilan shuhrat qozongan.Ularning jahoniylaridan nafaqat O'rta

Osiyo, balki G'arb mamlakatlari ham keng foydalanib kelmoqdalar. O'rta asr olimlari Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino va Forobiy kabi qomusiy olimlar jahon tamadduniga o'zlarining bilimlari va ijodlari bilan munosib ta'sir ko'rsaddilar.

2.Xuddi shuningdek ulug' alloma Najmiddin Kubro, Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhamad Boburlar ham o'z hayoti va ijodi bilan mamlakat ijtimoiy taraqqiyotida munosib o'rin egalladilar.Ularning har birini hayoti va ijodini o'rganish, Vatan ravnaqi uchun kurashish, yurtni qalb qo'ri bilan sevish ulg'ayib kelayotgan yosh avlod uchun hayot mayog'i bo'lib, xizmat qilishi shart va lozim.

3. Yosh avlodni vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, ularni yuksak axloqiy ruhda kamol topdirish muhtaram Yurtboshimizning asarlarida ifodalangan, maqola va chiqishlarida bayon etilgan g'oyaviy qarashlari orqali o'z tajjasumini topmog'i lozim.

4.Yosh avlodni yuksak insoniy fazilatlar, axloqiy qarashlar ruhida tarbiyalashda xalq og'zaki ijodi namunalari, urf-odat, udum, anana va qadriyatlar ifodalangan rivoyat va afsonalar, maqollar va naqillar muhim vosita va omil bo'lib xizmat qiladi.

5.Darslikda keltirilgan ulug' olim va shoirlarning hayoti va hamda ijodiga bag'ishlangan matnlar mazmuni va g'oyaviy yo'nalishlari o'qituvchidan ushbu sohada chinakam izlanish, tasavvur va tafakkurni talab etadi.

6.4-sinf “O'qish kitobi” darsligidagi “Ajdodlarimiz – faxrimiz “bo'limi asosida o'quvchilarda yuksak insoniy fazilatlarni shakllantirishning metodik va zamonaviy texnologik usullari belgilandi.

7.Bo'limdagi qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy hayotiga bag'ishlangan parcha orqali o'quvchilarga olimning donoligi, har qanday hayot muamolarini yecha olishdek tadbirkorligi va uning qarama – qarshiligidagi kurashuvchanlik qudrati nihoyatda ustuvorligi bayon etildi.

8.Ulug' mutasavvuf olim Najmiddin Kubroning vatanparvarlik tuyg'usining cheksizligi, mo'g'il bosqinchlarga qarshi ko'rsatgan afsonaviy jasorati orqali o'quvchilarda ona yurtga cheksiz muhabbat tuyg'usi uyg'otildi.

9.Xalqimizning buyuk shoiri Alisher Navoiy nafaqat o'zining ulkan adabiy merosi, balki insoniy fazilatlari, insonparvarligi, vatanparvarligi va aql-zakosi bilan ham yuksak shaxs sanaladi. Darslikdagi birgina “Tanbeh” parchasi tahlili bilan shoirning yurtga, insonlarga mehr-muhabbat tuyg’usi nihoyatda yuksakligi talqin etildi.

10.Ulug’ shoir, buyuk sarkarda va jamoat arbobi Zahiriddin Muhammad Boburning ona yurtga sog’inchi, garchi podshoh bo’lsa-da, o’z vataniga hatto gado sifatida qaytishi uning buyuk orzusiga aylanadi.Biroq bu orzu armonga aylanadi. Darslikdagi parcha orqali shoirning ana shu tuyg’usi atroflicha yoritildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

- 1.Karimov I.A .Milliy istiqlol mafkurasi- xalq e’tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. -T.. “O’zbekiston”,2000
2. Karimov I.A . Barkamol avlod –O’zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T..”Sharq”, 1997.
3. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat- yengilmas kuch. – T.. “Ma’naviyat”, 2008.
4. Karimov I.A Yangicha fikrlash va ishslash davr talabi. – T.. 1997.
5. Mirziyoyev Sh.M. –“Taqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. T.,O’zbekiston, 2017.,45-bet.
- 6.MirziyoyevSh.M.(2017-2021-yillarda oliy ta’lim tizimini kompleks rivojlantirishning chora-tadbirlari to‘g‘risida) gi Qarori. T.:2017-yil 20-aprel PQ209
- 7.MirziyoyevSh.M 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasuni rivojlantirishning 5ta ustuvor yo‘nalishi “Harakatlar strategiyasi” T.:2017-yil 7-fevral.

8. Abdullayeva Q. va boshq . Savod o'rgatish metodikasi.-T.. “O'qituvchi”, 1996.
9. Abdullayev Y. Eski mактабда xat-savod o'rgatish. –T.. “O'qituvchi”, 1960
- 10.Ashrapova T., Odilova M. Ona tili o'qitish metodikasi -T,”O'qituvchi”,1984.
11. Boshlang'ich mакtab darsliklarni yaratish mezonlari/ Tuzuvchilar: Q.Abdullayeva, M.Ochilov, K. Nazarov, S.Fuzailov, N. Bekova.-T..1994.
- 12.Fuzailov.S., Xudoyberganova.M. Ona tili (4-sinf uchun darslik. –T.. “O'qituvchi”, 2012.
13. Matchonov S., Shojalilov A., G'ulomova Sh., Sariyev Sh., Dolimov Z. O'qitish kitobi(4-sinf uchun darslik).-T ..”Yangiyul poligraphservice”,2007.
- 14.Matchonov.S. va boshq. 4-sinf o'qitish darslari.- T.. ..”Yangiyul poligraphservice”,2007.
15. Matchonov.S. va boshq.Boshlang'ich sinf o'qish darslarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish.-T”Yangiyul poligraphservice”,2008.
- 16.Ma'qulova B., Sa'diyeva S., Sinfdan tashqari o'qitish mashg'ulotlari (1-sinf o'quvchilari uchun metodik qo'llanma). –T .. “O'qituvchi”, 1997.
17. Ma'qulovaB., Matchon S. Kitobim-oftobim (2-sinf uchun sinfdan tashqari o'qish kitobi). T.. “O'qituvchi”, 2000.
18. Ma'qulova,.B D. Nasriddinova. Kitobim-oftobim (2-sinf uchun sinfdan tashqari o'qish kitobi). T.. “O'qituvchi”, NMIU, 2008.
- 19.Qosimova.K. Boshlang'ch sinflarda imlosi qiyin so'zlarni o'rgatish.- T..1964
20. Qosimova K., Fuzailov.A., Ne'matova.A. Ona tili (2-sinf uchun darslik). –T.. Cho'lpon, 2005.
21. Qosimova K., Ne'matova.A. Ona tili 2-sinf darslari). –T.. Cho'lpon, 2004
22. Rafiyev S. Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi va imlosi.-T..2003.
23. M .Xudoyberganova, M. Muxtorova. 3-sinfda ona tili darslari. –T.. “O'qituvchi”, 2005

- 24.Safarova R. va boshq. Savod o'rgatish darslari (Alifbeni o'qitish bo'yicha metodik qo'llanma). T.."Ma'naviyat", 2003.
25. Safarova R., Inoyatova M.Uyg'unlik kitobi//”Boshl.ta'l” jurnali. – Toshkent, 2004. -№ 5.18-19-betlar
- 26.Safarova R.va boshqalar. O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'lim strategiyasi muammolari va ta'lim mazmuning yangi modellari, ularni tatbiq etish yo'llari –Toshkent,"Fan"-2005, 254b.
- 27.Tolipo.O'., Usmonbekova.M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari. –T .. “Fan”, 2006.
28. Umarova M. , Hakimova.Sh. O'qish darslari (3-sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma). T.. Cho'lpon, 2008.
29. Xudoyberganova M. Bayonlar to'plami. –Toshkent: 1995
30. Yo'doshev J., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari.-T.. “O'qituvchi”, 2004.
- 31.Zunnunov.A va boshqa.Adabiyot o'qitish metodikasi. –T.. “O'qituvchi”, 1992
32. O'zbek tilining izohli lug'ati –M.,Rus tili, I, II том, 1981.
33. G'ulomov.M. Yozuv daftari. –T.."Ma'naviyat", 2008.
34. G'ulomov A. Ona tili o'qitish prinsiblari va metodlari.-T.. “O'qituvchi”, 1992.
35. G'ulomov.M. Chiroyli yozuv malakasini shakllantirish. –T.. “O'qituvchi”, 1992.
- 36.T. G'afforova, X.G'ulomova, Geshturdiyeva. 1-sinfda savod o'rgatish darslari. T.. “O'qituvchi”, 1996.
37. T. G'afforova, X.G'ulomova, E.Shodmonov. Ona tili (1-sinf uchun darslik). T.."Sharq", 2005.
38. T. G'afforova, va boshq. 1-sinfda o'qish darslari.-T..2003.
39. T. G'afforova, E.Shodmonov, G.Eshturdiyeva Alifbe (Savod). "Sharq", 2007
40. X.G'ulomova, T. G'afforova, 1-sinfda ona tili darslari. –T.. “Sharq”, 2003.

- 41.X.G'ulomova. 1-sinf ona tili dars ishlanmalaridan namunalar// “Boshl. ta’l “jurnali. –Toshkent,1996.-№6. 11-14-betlar.
- 42.Shoabdurahmonov Sh. Hozirgi o’zbek adabiy tili Toshkent, O’qituvchi, 1986 .
- 43.O’zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”// Barkamol avlod – O’zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: «Sharq», 1997. –B.31-61.
44. Fuzailov S., Xudoyberanova M. Ona tili. 4-sinf uchun darslik. – Toshkent.: «O‘qituvchi», 2008. – 144b.
45. G'afforova T. Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: “Tafakkur”, 2012. – 160 b.

Elektron ta’lim resurslari

1. <http://www.ziyonet.uz/> -O’zbekistondagi umumiy ta’lim axborot tarmog’i “ZiyoNET”
2. www. tdpu. uz
3. www. pedagog. uz
4. www. Ziyonet. Uz

Mundarija

Kirish-----

.3-10

Ibob.Yosh avlodni barkamollik ruhida tarbiyalashning pedagogik va nazariy asoslari

I.1.Yoshlarni ajdodlarimizning ulug’ siymolariga faxr tuyg’usini tarbiyalash -----

I.2. 4-sinf “O’qish kitobi”da o’quvchi shaxsini shakllantirishning ma’naviy va axloqiy talablari-----	-----38
II bob. 4-sinf “O’qish kitobi” darsligidagi “Ajdodlarimiz –faxrimiz “bo’limi asosida o’quvchilarda yuksak insoniy fazilatlarni shakllantirishning metodik usullari	
II.1. Bo‘limdagi ulug‘ ajdodlarimiz siyomosi keltirilgan matnlar asosida o’quvchilarni insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash -----	-----
--50	
II.2. Darslikdagi To‘maris, Najmiddin Kubro, Alisher Navoiy, Z.M.Bobur, Abu Rayxon Beruniy Usmon Nosir siymolarini o‘rganish orqali o‘quvchilarda yuksak insoniy fazilatlarni shakllantirish -----	-----
-----65	
III.Xulosa -----	
----70	
Foydalanilagan adabiyotlar ro‘yxati-----	
---71	
Slayd -----	
----80	

Buxoro davlat universiteti Boshlang‘ich va maktabgacha ta’lim fakulteti boshlang‘ich ta’lim va sport tarbiyaviy ish yo‘nalishi bitiruvchisi **Islomova**

Gulnora Jamolovnaning ”4-sinf ”O‘qish kitobi“da”Ajdodlarimiz-faxrimiz“bo‘limi asosida o‘quvchilarni ajdodlarimiz an’analariga sadoqatlilik ruhida tarbiyalash“ mavzusida yozgan bitiruv malakaviy ishiga

T a q r i z

Hozirgi davr ta’lim jarayonining tub ma’nosи mohiyati o‘quvchi shaxsini har tomonlama barkamol inson qilib tarbiyalashdir. Agar shaxs yuksak insoniy fazilatlar egasi bo‘lsagina, u bu jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘ladi va baxtsaodatga erishadi. Ayniqsa, vatanni sevish va unga cheksiz muhabbat ruhini his qilish, o‘zining buyuk ajdodlari tarixi va ma’naviy me’rosini o‘rganish va chuqur anglash orqali shakllanadi. Bu esa boshlang’ich ta’lim mutaxassislaridan bola tarbiyasida o’ta bilimlilik, ziyrakik va tinimsiz oqilona faoliyatni talab etadi. Binobarin, yoshlar tarbiyasiga har qanday davr va jamiyatda ham ulkan mas’uliyat bilan yondashilgan, shuningdek, ularga buyuk kelajagimizning yaratuvchisi va porloq orzusi sifatida qaralib kelingan.

Tadqiqotchi Islomova Gulnora yuqoridagi maqsadga tayangan holda uning pedagogik malakasi va intilishlarini inobatga olib bolalarni boshlang’ich ta’limning ilk bosqichidanoq yuksak insoniy ruhda tarbiyalashda 4-sinf ”O‘qish kitobi“ darsligida qanday vazifalar turganini, ularda ta’lim-tarbiyaning asosi nimaga qurilganini aniqlash, ushbu fikr va qarashlarning zamiri qanday nazariy va amaliy poydevorga ega ekanligini chuqur anglab yetgan va shu asosda ishni qat’iy reja asosida yoritishga harakat qilgan.

Tadqiqotchi Islomova Gulnoraning ish mavzusini birinchi bobи – ”**Yosh avlodni barkamollik ruhida tarbiyalashning pedagogik va nazariy asoslari**“ deb nomlangan bo‘lib, unda mavzu yuzasidan atroficha ish olib brogan, mustaqil izlangan va murakkab pedagogik tajribalarni kuzatgan, undan nazariy hamda amaliy to’xtam hamda xulosalarga kelgan. Tadqiqotchining o‘zi enh avvalo Ibn Sino, Amir Temur, Alisher Navoiy, Zahriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodini chuqur o‘rgangan. Ularning madaniyatimiz taraqqiyotiga qo‘shtigan boy ilmiy va ma’naviy me’roslarini atroficha

o‘rgangan. Shu nuqtai nazardan ularning yosh avlod tarbiyasi uchun zarur manbaa sifatida o‘rganiladigan asarlarini, ular haqidagi rivoyat va afsonalarini keltiradi va g‘oyaviy mazmun jihatidan tahlil etadi. Uning bu kuzatishlari ikkinchi bobi ”**4-sinf “O‘qish kitobi” darsligidagi “Ajdodlarimiz –faxrimiz “bo‘limi asosida o‘quvchilarda yuksak insoniy fazilatlarni shakllantirishning metodik usullari“**,-deb nomlangan bo‘lib, unda darslikdagi shu ulug‘ siymolar hayotiga bag‘ishlangan matnlar mazmuni va g‘oyasini o‘quvchilarga yetkazishning o‘ziga xos metodik usullari ko‘rsatilgan. Mashg‘ulot jarayonida noan’anaviy texnologik usullardan samarali foydalanilgan. Ayniqsa, dars mashg‘ulotlarida davlat amaliyotida qo‘llagan tajribalardan ham o‘rinli foydalangan. Ishning muvaffaqiyati shunda ko‘rinadiki, u darslikdagi faqat bir bo‘limni o‘rganish bilan cheklanib qolmay, butun darslikning boshqa sakkizta bo‘lim mazmuni bilan ham astoydil tanishib chiqdi va muayyan tasavvur hamda xulosalarga keldi. Shuning uchun ham uning ishida darslikdagi badiiy asarlarning tahlili juda ko‘p uchraydi. Bu tahlillar bir asarning goh bevosita boshqa asardagi unga xos xususiyatlar bilan qiyoslansa, goh darslikdagi boshqa asar bilan mazmun va g’oya jihatidan uyg‘unligi taqqoslanadi. Asarni obrazlari, mazmuni va g‘oyaviy jihatdan qiyosiy o‘rganish tadqiqotchining pedagogik malakaviy jihatdan iqtidorini namoyon etgan. Umuman, ish katta mehnat faoliyati, qat’iy reja va mustaqil qarashlar asosida yaratilgan. Bunga u foydalangan adabiyotlar ro‘yxati ham dalolat berib turadi.

Men tadqiqotchi bitiruvchisi **Islomova Gulnora Jamolovnaning ”4-sinf ”O‘qish kitobi“da“ Ajdodlarimiz-faxrimiz“bo‘limi asosida o‘quvchilarni ajdodlarimiz an’analariga sadoqatlilik ruhida tarbiyalash“** mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi DAK talablariga to’la javob beradi va uni davlat hay’ati oldida himoya qilishga tavsiya etaman. Tadqiqotchini esa bakalavr imiy darajasini olishga loyiq deb bilaman.

Taqrizchi:

B.S.Jamilova,

filologiya fanlari nomzodi,
dotsent

Buxoro davlat universiteti Boshlang‘ich va mактабгача ta’lim fakulteti boshlang‘ich ta’lim va sport tarbiyaviy ish yo‘nalishi bitiruvchisi **Islomova Gulnora Jamolovnaning** ”4-sinf ”O‘qish kitobi“da ”Ajdodlarimiz-faxrimiz“bo‘limi asosida o‘quvchilarni ajdodlarimiz an‘analariga sadoqatlilik ruhida tarbiyalash“ mavzusida yozgan bitiruv malakaviy ishiga

T A Q R I Z

Inson yashagan umri bilan emas, u egallagan ma’naviy, madaniy va ma’rifiy dunyoqarashi bilan o‘z o‘rnini topadi. Zero, uning say-harakatlari va tafakkuri bilan eng muqaddas insoniy tuyg‘ular: ota –onaga sadoqat ona vatanga cheksiz mehr muhabbat, kasb-hunarga ixlos, odamlarga mehr-muhabbat, yaxshilik, ezgulik kabi fazilatlarni egallah orqali shakllanadi. Bu esa ajdodlarimizning asriy orzulari bo‘lib, hozirgi davrda ham o‘z salohiyati bilan yuksak mazmun kasb etmoqda.

Tadqiqotchi Gulnora Jamolovnaning bitiruv malakaviy ishida ham yosh avlodda erta ulg‘ayish pallasidan boshlab, ana shunday barkamol avlod sifatida tarbiyalashda asosiy g‘oya deb belgilangan. U 3-sinf “O‘qish kitobi” dagi aynan shunday bo‘limni tanlagani ham bejiz emas. Ushbu bo‘limda yuksak insoniy fazilatlar rivoyat, she’r, ertak va ulug‘ donishmadlar hayotidan olingan mazmunli voqeysalar asosidagi matnlar keltirilgan. Ishda ana shu matnlarning tahlili va talqiniga atroflicha o‘rin berilgan. Garchi bir bo‘lim ishga asos qilib olingan bo‘lsa-da, darslikdagi qolgan bo‘lim mavzu va matnlari keng o‘rganilgan. Unda tadqiqotching shaxsiy mulohazalari va qarashlari aniq ko‘rinib turadi.

Bitiruv malakaviy ish ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotidan iborat. Ishning birinchi bobida yosh avlodni tarbiyalashning nazariy asoslari: milliy istiqlol g’oyasi, Yurtboshimiz asarlardagi ma’naviy va marifiy qarashlar, buyuk xalqimiz tomonidan qoldirilgan yuksak adabiy meros – og‘zaki ijodiy namunalar, shuningdek, ulug’ ajdodlarimizning dono farzandlari hayotida olingan namunalarga alohida munosabat bildirilgan.

Ishning ikkinchi bobida esa darslikdagi mavzularning metodik jihatidan o’rganilishi, ularning mazmun va g’oya jihatidan talqin etilishi, badiiy tasviriy va ifodaviy hamda kompazitsion tahliliga keng o‘rin berilgan. Tadqiqotchi ana shu qarashlar asosida muayyan xulosalarga kelgan va ularni umumlashtira olgan.

Ishda ayrim kamchiliklar mavjud. Ular fikr izchiligidagi va ayrim mavzularni takror tahlilida sezilib turadi. Bulardan qat’iy nazar, ish mavzuga mustaqil qarash va ijodiy munosabat orqali yaratilgan.

Tadqiqotchi Gulnora Jamolovnaning bitiruv malakaviy ishning iikinchi bobida ulug’ ajdodlarimiz Forobiy, Ibn Sino, Amir Temur, Alisher Navoiy, Zahriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodiga bag‘ishlangan matnlarni chuqur o‘rganganligi, ularni o‘quvchilarga yetkazishda yosh xususiyatlarini inobatga olib, berilayotgan ma’lumotlar yangi zamonaviy texnologik usullarda tashkil etilganligi bilan kishi e’tiborini o‘ziga tortadi. Bu esa bitiruvchimizning yetuk mutaxassis darajasiga yetayotganligi, ta’lim jarayonida ijodiy izlanuvchanlikni atroflicha anglaganligidan dalolat beradi.

Men tadqiqotchi **Islomova Gulnora Jamolovnaning ”4-sinf ”O‘qish kitobi“da ”Ajdodlarimiz-faxrimiz“ bo‘limi asosida o‘quvchilarni ajdodlarimiz an’analariga sadoqatlilik ruhida tarbiyalash“** mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi DAK talablari asosida mustaqil, ijodiylik ruhida yaratilgan. Uni davlat attestatsiya hay’atidan ijobjiy baholashni so’rayman va ish muallifi Gulnora Islomova oliy ta’lim bakalavr ilmiy darajasini olishga loyiq deb bilaman.

Taqrizchi:

Buxoro davlat universiteti Boshlang‘ich va maktabgacha ta’lim fakulteti boshlang‘ich ta’lim va sport tarbiyaviy ish yo‘nalishi bitiruvchisi **Islomova Gulnora Jamolovnaning ”4-sinf ”O‘qish kitobi“da ”Ajdodlarimiz-faxrimiz“bo‘limi asosida o‘quvchilarni ajdodlarimiz an’analariga sadoqatlilik ruhida tarbiyalash“** mavzusida yozgan bitiruv malakaviy ishiga ilmiy rahbar tomonidan yozilgan

X u l o s a

”Vatanni sevmoq iymondandir“ yoxud ”Vatan sajdahoh kabi muqaddasdir “-deyiladi Hadisi sharifda. Insonning barkamolligi, uning aql-tafakkuri yuksakligi ana shu tuyg‘u bilan o‘lchanadi, albatta. Shunday ekan, vatanni sevish unga muhabbat tuyg‘usini shakllantirish juda erta yoshlikdan boshlanadi. Bu esa, asta- sekinlik bilan aql-zakovatning teranlashishi, atrofdagi insonlarga samimi tuyg‘ularning paydo bo‘lishi bilangina shakllanib qolmasdan, balki o‘tmish ajdodlarimizning yashash tarzi va ular tomonidan bizga qoldirilgan ma’-naviy me’rosni o‘rganishdan, u haqdagi bilim bilan tafakkur dunyomizni boyitishdan boshlanadi.

Tadqiqotchi Islomova Gulnoraning bitiruv malakaviy yosh avlodning boshlang‘ich ta’limi asosidayoq, ana shunday barkamol avlod sifatida tarbiyalashda katta ahamiyat berilgan. U 4-sinf “O‘qish kitobi” dagi aynan shunday bo‘limni tanlagani ham bejiz emas. ushbu bo‘limda yuksak insoniy fazilatlar rivoyat, she’r, ertak va ulug’ donishmadlar hayotidan olingan mazmunli voqeýalar asosidagi matnlar keltirilgan. Ishda ana shu matnlarning tahlili va talqiniga atroflicha o’rin berilgan. Garchi bir bo‘lim ishga asos qilib olingan bo‘lsa-da, darslikdagi qolgan

bo'lim mavzu va matnlari keng o'rganilgan. Unda tadqiqotchining shaxsiy mulohazalari va qarashlari aniq ko'rinish turadi.

Bitiruv malakaviy ish ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotidan iborat. Ishning birinchi bobida "**Yosh avlodni barkamollik ruhida tarbiyalashning pedagogik va nazariy asoslari**": milliy istiqlol g'oyasi, Yurtboshimiz Sh.Mirziyoyevning asarlardagi ma'naviy va marifiy qarashlar, buyuk xalqimiz tomonidan qoldirilgan yuksak adabiy meros – og'zaki ijodiy namunalar, shuningdek, ulug' ajdodlarimizning dono farzandlari hayotida olingen namunalarga alohida munosabat bildirilgan.

Ishning ikkinchi bobida esa "**4-sinf "O'qish kitobi" darsligidagi "Ajdodlarimiz – faxrimiz "bo'limi asosida o'quvchilarda yuksak insoniy fazilatlarni shakllantirishning metodik usullari**", -deb nomlangan bo'lib, darslikdagi mavzularning metodik jihatidan o'rganilishi, ularning mazmun va g'oya jihatidan talqin etilishi, badiiy tasviriy va ifodaviy hamda kompazitsion tahliliga keng o'rinn berilgan. Tadqiqotchi ana shu qarashlar asosida muayyan xulosalarga kelgan va ularni umumlashtira olgan.

Tadqiqodchi Gulnora Jamolovna bitiruv malakaviy ishning iikinchi bobida ulug' ajdodlarimiz Forobiy, Ibn Sino, Amir Temur, Alisher Navoiy, Zahridin Muhammad Bobur hayoti va ijodiga bag'ishlangan mavzularni chuqr o'rganganligi, ularni o'quvchilarga yetkazishda tarixiy manbalarning asosli ekanligiga, ularni yangi zamonaviy texnologik usullarda etkazishga yuksak e'tibor bilan qaraydi. Bu esa bitiruvchimizning yetuk mutaxassis darajasiga yetayotganligi, ta'lim jarayonida ijodiy izlanuvchanlikni atroflicha anglayotganligini his qilish mumkin.

Men tadqiqotchi bitiruvchisi **Islomova Gulnora Jamolovnaning "4-sinf "O'qish kitobi"da" Ajdodlarimiz-faxrimiz "bo'limi asosida o'quvchilarni ajdodlarimiz an'analariga sadoqatilik ruhida tarbiyalash"** mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi DAK talablari asosida mustaqil, ijodiylik ruhida yaratilgan. Uni davlat attestatsiya hay'atidan ijobjiy baholashni so'rayman va ish muallifi bitiruvchisi Islomova Gulnora Jamolovnani oliy ta'lim bakalavr ilmiy darajasini olishga loyiq deb bilaman.

Ilmiy rahbar:

S.S. Avezov,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent